Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

2023-yil
27-iyun
seshanba

№ 26 (4616)

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning quyi tizimlarida xizmat qilayotgan xodimlar faoliyati bilan gazetamizning 8–9-sahifalarida tanishasiz.**







8-9

# ОҚ ЙЎЛ СИЗГА, БИТИРУВЧИЛАР!

**Ички ишлар вазирлиги Академиясида бўлиб ўтган курсантларнинг битирув маросимига бағишланган тантанали тадбирда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати Мудофаа ва хавфсизлик масалалари қўмитаси раиси Қутбиддин Бурхонов, вазирлик раҳбарияти, соҳа фахрийлари, таълим муассасаси профессор-ўқитувчилари ҳамда битирувчиларнинг оила аъзолари иштирок этди.**



Маълумот ўрнида айтиш жоизки, жорий йил Академиянинг кундузги таълим йўналишини 7 та ихтисослик бўйича 600 нафардан ортиқ курсант тамомлади. Ўтган уч йил мобайнида улар ўзлари танлаган мутахассислик бўйича замон талаблари даражасида таълим олишди. Машғулотлар миллий ва хорижий тажрибанинг илғор ёндашувлари асосида олиб борилди. Таълимнинг амалиёт билан уйғунлигини мустаҳкамлаш мақсадида ўқув тергов-тезкор гуруҳлари, ҳудудий ички ишлар органлари билан биргаликда маҳорат машғулотлари ҳамда базавий амалиётлар йўлга қўйилди. Айниқса, битируволди «Финал» комплекс ўқув машғулотлари курсантларнинг келгусидаги хизмат фаолиятида асқатадиган амалий кўникмаларни мустаҳкамлашга хизмат қилди. Ўқув йили якунида улар давлат аттестация имтиҳонларини топшириб, малакавий диплом ишларини ҳимоя қилишди.

Тадбирда кундузги таълимни тегишли мутахассисликлар бўйича тамомлаган курсантларга дипломлар тантанали равишда топширилди. Улар орасидан 24 нафар курсант имтиёзли диплом, 2 нафари эса «катта лейтенант» махсус унвони соҳиби бўлишди.

– Мазкур таълим даргоҳини муваффақиятли битириб, юрт осойишталигини асрашдек эзгу ва шарафли хизмат остонасида турганимиздан ҳаяжонимиз чексиз, – дейди ИИВ Академияси битирувчиси, катта лейтенант Муҳаммадмирзохон Аълохонов. – Ўқиш жараёнида олган назарий билимларимизни амалиётда қўллаш орқали соҳага оид билим ва кўникмаларимизни ҳам шакллантирдик. Келгусида ота-онамиз, устозларимиз ва вазирлик раҳбарияти билдирган улкан ишончни оқлаш зиммамизга улкан масъулият юклайди. Буни доимо ёдда сақлаймиз.

Тантанали маросимда Ички ишлар вазирининг биринчи ўринбосари, полковник Шавкат Раҳмонов битирувчиларни табриклаб, тизим учун профессионал кадрлар тайёрлаш мақсадида амалга оширилаётган изчил ислоҳотлар касбий билим, интеллектуал салоҳият, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, она Ватанимиз тақдирига дахлдор фидойи ёшларни камол топтиришда муҳим пойдевор бўлаётганини алоҳида таъкидлади. Шунингдек, битирувчилардан Гулжон Маратова, Севдиёр Абдуназаров, ота-оналар номидан сўз олган Муҳайё Содиқовалар давлатимиз томонидан ёшлар таълим-тарбияси йўлида қилинаётган эзгу ишлар ва улкан ислоҳотларни эътироф этишди.

Тадбир она юртимизни мадҳ этувчи қўшиқ ҳамда битирувчиларнинг тантанавор марши билан якунланди.

**Хуршид ОЛИМОВ.**
**Икром ҲАСАНОВ**
**олган суратлар.**







www.postda.uz t.me/postdarasmiy www.facebook.com/postdauz www.instagram.com/postda_uz

*27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni*

# SHIJOATI HAVAS UYG‘OTAR

**Bugun axborotga bo‘lgan talab shu qadar kuchaydiki, jurnalistika jamiyatning qon tomiriga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Deylik, ishni a’lo darajada bajarib, natijalar ko‘ngildagidek bo‘lsa-yu, lekin uning targ‘iboti sust bo‘lsa, ko‘zlangan natijaga erishish mushkul.**



Namangan viloyati ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida o‘tkazilayotgan tadbirlar Axborot xizmati xodimlarining tezkorligi natijasida keng yoritib kelinmoqda.

Boshqarma tomonidan OAV xodimlariga yaratilayotgan shart-sharoitlar ham shunga monand. Boshqarma faoliyatini qadam-baqadam yoritayotgan fidoyilar orasida Nazira Olimjonovaning alohida hissasi bor. Mas’uliyatli, qat’iyatli qizni nafaqat viloyatda, balki respublikamizda ham yaxshi tanishadi. Respublika telekanallarida efirga uzatilayotgan lavhalarda izlanuvchan jurnalistning mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Nazira viloyat IIB YHXB Axborot guruhi kichik mutaxassisi sifatida faoliyat olib bormoqda. Uning uchun ishning katta-kichigi yo‘q. Ovoz yozishdan tortib, montaj jarayonlari yakuniga yetgunga qadar, ish stolidan uzoqlashmaydi. Kasbini sevgani bois qiyinchiliklar ham bilinmaydi.

Haftaning har shanba kuni «Navbatchilik qismi xabarlari» ko‘rsatuvida Nazira Olimjonova boshlovchilik qiladi. Bundan tashqari, yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining namunali xodimlari, yo‘l hodisalari sharhi va yana boshqa ko‘plab dolzarb mavzularni ko‘tarib chiqib, soha faoliyatini yaxshi yoritib kelmoqda.

To‘g‘risini aytsam, Naziraning shijoatiga havasim keladi, biz yigitlarni ham ortda qoldiradi, – deydi boshqarma Axborot xizmati boshlig‘i, mayor Xurshidbek Soliyev. – O‘zi ham tinmaydi, atrofidagilarni ham tindirmaydi.

U viloyat ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlar xodimlarining muruvvat tadbirlarida faol ishtiroki, xalq ishonchini qozonayotgan fidoyilar haqida lavhalar, xizmat vazifasini bajarish chog‘ida mardlarcha halok bo‘lganlarni xotirlab, ko‘rsatuvlar tayyorlaydi. Uning teran nigohidan hech bir voqelik chetda qolmaydi. Ayniqsa, targ‘ibotga xizmat qiluvchi ta’sirchan videoroliklari ko‘pchilikka manzur bo‘lmoqda.

Nazira yangilikka intiladi, tomoshabinni hayratlantira oladi. Joriy yil boshida yo‘l harakati xavfsizligi xodimlarining yarim tunda yo‘lovchi homilador ayolni tug‘uruq bo‘limiga yetkazib borguncha xizmat avtomashinasida chaqaloq dunyoga kelgani haqida Nazira tayyorlagan lavha katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Jurnalistning ana shunday katta qahramonliklar ko‘rsatayotgan xodimlarni topib, ommaga taqdim etayotgani tahsinga loyiq.

– Nazira xizmat faoliyatini boshlaganiga endigina 3 yil to‘ldi. Shu vaqt mobaynida boshqarma rahbariyati tomonidan xizmatlari munosib e’tirof etilib, bir necha marta rag‘batlantirildi, – deydi viloyat IIB boshlig‘ining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari podpolkovnik Mahliyo Ubaydullayeva. – Uni sohada ishlayotgan xotin-qizlarga ibrat qilib ko‘rsatsak arziydi.

Nazira ayni paytda O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining sirtqi bo‘limi 3-bosqich talabasi. U ish va o‘qishni teng olib borib, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniga ham ega bo‘lmoqda.

Ulkan maqsadlar sari dadil qadamlar tashlayotgan qahramonimiz haqidagi gapni shu yerda muxtasar qildik. Uning keyingi hayotidagi muhim o‘zgarishlar, orzulari haqida yana, albatta, hikoya qilamiz.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**
**«Postda» muxbiri.**
*Namangan viloyati.*

*30-iyun – Yoshlar kuni*

# YURGAN YURT KEZAR

**Sayohat qilish 10 ta kitob o‘qigandan yaxshiroq deyishadi. Chunki sayyoh yo‘l-yo‘lakay har xil voqealarga duch kelib, turfa odamlar bilan muloqotda bo‘ladi. Shu asnoda o‘zi uchun yangi bilimlar, anglashlar, xulosalar oladi.**

Bugun ana shunday sayr-u sayohatlarda ko‘ngil yozib, madaniy hordiq chiqarib, yangi taassurotlarga ega bo‘lishlari uchun surxondaryolik yoshlar uchun ham ekskursiyalar tashkil etilmoqda. Bunda Surxondaryo viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi xodimlari tashabbuskor bo‘lishyapti.

– 2023-yilning yanvar oyidan boshlab 40 dan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarining namunali o‘qituvchi va o‘quvchilari Samarqand va Buxoro shaharlariga sayohatga olib borildi, – deydi viloyat IIB XTTB katta inspektori, kapitan Akbar Mavlonov. – Boshqarma xodimlarining o‘zi kuzatuvchi sifatida ularning xavfsizligini ta’minlash bilan birga, tarixiy obidalar haqida ham batafsil ma’lumotlar berib borishdi. Qolaversa, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda nogironligi bo‘lgan yoshlar uchun 2 marotaba Samarqand shahriga «Inklyuziv» sayohat tashkil etildi. Ushbu ezgu tashabbus esa ularning xursandchiligiga sabab bo‘lib, hayotga intilishini yanada oshirdi.



– Bundan tashqari, boshqarmamiz viloyatdagi oliy o‘quv yurtlari turizm ta’limi yo‘nalishi fakultetlari bilan ham doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan, – deydi viloyat IIB XTTB inspektori, katta leytenant Minal Qambarova. – Ular uchun tez-tez boshqarma binosiga ham sayohatlar uyushtirilmoqda. Xususan, yaqinda Termiz davlat universiteti turizm yo‘nalishi talabalari Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasida tashkil etilgan situatsion markaz hamda xizmat jarayonida foydalanib kelinayotgan texnikalar bilan tanishishdi. So‘ngra viloyat bo‘yicha turizm obyektlariga sayohatlar uyushtirildi. Yoshlar Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, Sulton Saodat majmuasi, Fayoztepa yodgorligi, Qirqqiz qal’asi, Said otaliq madrasasida bo‘lib, ajdodlarimiz tarixi haqidagi ma’lumotlarni olishdi. Ayniqsa, so‘lim tabiati bilan mashhur Sangardak sharsharasiga qilingan sayohat talabalarda katta taassurot qoldirdi.

Darvoqe, maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Shu kungacha 3 ta bog‘cha tarbiyalanuvchilari uchun ham Termiz shahridagi hayvonot bog‘i, Qo‘g‘irchoq teatriga sayohat tashkil etilgani bolajonlarning quvonchiga sabab bo‘ldi.

Bu sa’y-harakatlar bog‘cha yoshidagi bolalardan tortib o‘quvchi hamda talaba-yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni shu ona zaminga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**
**«Postda» muxbiri.**
*Surxondaryo viloyati.*



*Зарубежные коллеги*

# ПОЗДРАВЛЯЕМ СО СЛАВНЫМ ЮБИЛЕЕМ!

**27 июня ведомственным изданиям МВД Республики Казахстан «Saqshy» и «На страже» исполняется 90 лет. От всей души, сердечно и искренне поздравляем творческих работников газет со славной датой!**


С ДНЕМ КАЗАХСТАНСКОЙ ПОЛИЦИИ!

НА СТРАЖЕ

№ 24/4762/пятница, 23 июня 2023 года — РЕСПУБЛИКАНСКАЯ ПРАВОВАЯ, ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА — www.polisia.kz

«ПО-ДРУГОМУ Я НЕ МОГ...»

Капитан полиции Сугур Макаров работает криминалистом в отделе полиции УП столичного района Сарыарка уже семь лет. За эти годы он много повидал, много сделал, многим помог. 16 июня он предотвратил трагедию: спас человека, рискуя собственной жизнью.

3 стр.

Халык Кахарманы Каирбек Сулейменов: «НЕ МОГУ ОСТАВАТЬСЯ РАВНОДУШНЫМ, КОГДА ДЕЛО КАСАЕТСЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ»

5 стр.

НАДЕЖНОЕ БРАТСКОЕ ПЛЕЧО

7 стр.

РАЗГОВОРЫ ПОДОЖДУТ!

Газеты «Saqshy» и «На страже» – издания, освещающие многогранную деятельность органов внутренних дел Республики Казахстан. Они завоевали признание широкой читательской аудитории яркими статьями, очерками, репортажами, рассказывающими о непростых буднях стражей правопорядка, повествующими о лучших подразделениях, новшествах, внедряемых в отраслевых службах.

При этом следует отметить, что наши издания, отражая деятельность органов внутренних дел Узбекистана и Казахстана, способствуют дальнейшему повышению эффективности деятельности правоохранителей, осуществляемой во имя обеспечения общественной безопасности, борьбы с преступностью и ее профилактики.

Уважаемые коллеги! В день юбилея еще раз примите самые теплые пожелания. Мы твердо уверены в том, что плодотворное сотрудничество наших изданий будет и впредь углубляться и расширяться.

**Творческий коллектив Объединенной редакции МВД Республики Узбекистан.**



*Грани мастерства*

# УВАЖЕНИЕ, ЗАСЛУЖЕННОЕ КРОПОТЛИВЫМ ТРУДОМ

**Контролер 3-го взвода охраны на КПП Ташкентского международного аэропорта старший сержант Надежда Глухова работе своей предана всей душой. Принципиальная и внимательная, она не мыслит себя без профессии, которой посвятила многие годы...**



В системе органов внутренних дел Надежда Сергеевна проработала 21 год. В свое время, получив медицинское образование, трудилась в реанимационном отделении Центрального госпиталя МВД Республики Узбекистан и по праву считалась одной из самых лучших медсестер. Позже ей довелось работать фельдшером курсантского батальона Ташкентского высшего военно-технического училища МВД Узбекистана, где также проявляла профессионализм и мастерство в выполнении поставленных задач.

Надежду Глухову можно с уверенностью причислить к перфекционистам – то есть к профессионалам, которые стремятся улучшить подход к работе, расширить кругозор, делятся знаниями с молодыми специалистами. Последние пять лет Н. Глухова служит контролером, в ее обязанности входит обеспечение безопасности авиаперевозок.

– Специфика деятельности кропотливая, требующая предельного внимания и бдительности, – говорит Надежда Сергеевна. – При этом мне и моим коллегам необходимо проявлять вежливость и спокойствие, ведь ситуации бывают разные, со временем начинаешь разбираться в психологии, учишься предугадывать события.

Старшего сержанта Н. Глухову руководство и коллеги уважают за ответственное отношение к служебным обязанностям.

Помимо работы, у каждого из нас есть что-то свое, личное. Гордость Надежды Сергеевны – ее сын Георгий, который собирается поступать в Ташкентский университет информационных технологий. Он с детства увлекается программированием и английским языком.

Есть у нее и любимое хобби. Надежда увлечена путешествиями по историческим местам Узбекистана. Она уже успела побывать во многих городах и планирует съездить в Хиву, искренне убеждена в том, что у каждого должен быть интерес к чему-либо. Это помогает нам расти и развиваться духовно и нравственно.

**Бибигуль МУРТАЗАЕВА.**

*Yoshlar – kelajak bunyodkori*

# MINNATDOR NIGOHLAR TUYDIRGAN TUYG‘U

**Toshkent shahar IIBB JTSB saf bo‘linmalari PPX brigadasi 2-maxsus safarbarlik batalyoni xodimlari jamoat joylarida, poytaximizda tashkil etiladigan ommaviy tadbirlarda fuqarolar xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlashda hamisha faol. Shuningdek, tadbirlar mobaynida boshqa xizmat vakillari bilan hamkorlikda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni aniqlash va sodir etilganlarini «issiq izida» ochishda ham ishtirok etmoqda.**

– Xodimlarimiz o‘tkazilayotgan maxsus tadbirlarda faol qatnashib kelishmoqda, – deydi 2-batalyon 1-otryad komandirining o‘rinbosari, mayor Bekzod Hakimov. – Shuningdek, bosh boshqarma boshlig‘ining tegishli ko‘rsatmasiga asosan, «Hamkor» tadbirlariga jalb etilgan xodimlarimiz «Xavfsiz shahar» konsepsiyasining amaldagi ijrosini ta’minlashga hissa qo‘shib kelishmoqda.

Bundan tashqari, «Tig‘» profilaktik-ogohlantiruv tadbirida ham sovuq qurollar aniqlanib, fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazilishining oldi olinmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, yaqinda «Tashkent-City» istirohat bog‘ida xizmatga jalb qilingan safdor B. Haydarov tomonidan 1993-yilda tug‘ilgan S.T. yonida oshxona pichog‘ini olib yurganligi aniqlangan.





Osoyishtalik posbonlari nafaqat mana shu kabi huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning oldini olish, balki har qanday yordamga muhtoj bo‘lgan, og‘ir vaziyatga tushib qolgan insonlarga yordam berishda ham jonbozlik ko‘rsatishmoqda. Xususan, safdor Eldor Yuldoshev «Tashkent-City»da xizmat vazifasini o‘tab yurgan vaqtida 3 yoshlar atrofidagi qizaloqning yig‘lab yurganini ko‘rib qoladi. Ma’lum bo‘lishicha, bu bolajon konsert bo‘layotgan joydan ota-onasining qo‘lidan chiqib ketib yo‘qolib qolgan. Tez orada Farg‘ona viloyatidan poytaxtga mehmon bo‘lib kelgan Sabina ota-onasiga eson-omon topshirildi. Qizchaning ota-onasi esa xodimimizga minnatdorlik bildirdi. Ha, mana shu onda xizmatning qiyinchiligi-yu mashaqqatlari unut bo‘ladi. Har qanday osoyishtalik posboni g‘urur tuyg‘usini tuyadi.

Biz mayor Bekzod Hakimov hamrohligida poytaxtimizning Abdulla Qodiriy ko‘chasida yaqinda barpo etilgan istirohat bog‘iga borganimizda, 2-maxsus safarbarlik batalyoni xodimlari, safdorlar Shahzod Saidahmedov, Eldor Yuldoshev hamda Bolisbek Muhammadqulovlar xizmat olib borayotganiga guvoh bo‘ldik. Bog‘ning turli nuqtalarida videokameralar o‘rnatilgan. Shu yerdagi patrul-post maskanida o‘tirgan xodim tomonidan kompyuter orqali videokameralardan uzatilayotgan tasvirlar kuzatib borilmoqda.

Bundan tashqari, ikkita xodim bog‘ni aylanib yurib, har bir vaziyatni nazorat qilib turibdi. Bu sa’y-harakatlarning barchasi fuqarolarimiz xavfsizligi ishonchli qo‘llarda deganidir.

**Sarvar SOBIROV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Toshkent shahri.*

*Uchinchi sektorda*

# «MAHALLABAY» ISHLASH SAMARASI

**Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumanidagi uchinchi sektor 10 ta mahalla fuqarolar yig‘inini o‘z ichiga oladi. Keyingi ikki-uch yilda sektor hududidagi mahallalarda ko‘plab obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi, ichki yo‘llar ta’mirlanib, kommunal sohadagi bir qator muammolar bartaraf etildi.**

– Sektor tarkibidagi mahallalarda 9054 ta oila mavjud bo‘lib, 35 ming 516 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi tuman IIB HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori, sektor kotibi, katta leytenant Ahadjon Rejapov. – Har bir mahallada rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektoridan iborat beshlik faoliyati yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng ijobiy ko‘rsatkichlar bo‘y ko‘rsata boshladi. Ishchi guruh va mahallalardagi beshlik a’zolari bilan hamkorlikda mahallama-mahalla yurib, xonadonlarga birma-bir kirgan holda, manzilli o‘rganishlar olib boryapmiz. Bu esa muammolarni erta aniqlash, joyida hal etish, ehtiyojmand qatlamga yordam ko‘rsatish, «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»dagi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashda yaxshi samara bermoqda.



Sektor kotibining qayd etishicha, joriy yilning o‘tgan davrida «Temir daftar»da turgan 4 nafar fuqaroning xonadoniga quyosh panellari o‘rnatib berildi. «Cho‘lguliston» mahallasida yashovchi Gulasal Nazarovaning uyi ta’mirtalab ahvolga kelib qolgani aniqlandi va hozirda yangi uy qurib berilmoqda. «Taraqqiyot» mahallasida yashovchi Malikaxon Rahmonovaning murojaatiga asosan, amaliy yordam tariqasida uning xonadoniga yangi darvoza o‘rnatildi.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan 79 nafar yigit-qizga ham turli ko‘rinishdagi yordamlar ko‘rsatilib, ular ro‘yxatdan chiqarildi. Masalan, 32 nafar yoshga dehqonchilik uchun 15 sotixdan yer ajratib berilib, bandligi ta’minlandi. 16 nafar yoshning 45 million so‘mlik to‘lov kontrakt mablag‘lari to‘lab berildi. Tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan 5 nafar yoshga davolanish uchun 10 million so‘m mablag‘ ajratildi.



Xotin-qizlar muammolarini hal etish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ham e’tirofga loyiq. Jumladan, 9 nafar ayolga 41 million so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. 16 nafar xotin-qiz ishga joylashtirildi. 104 nafar ayolga bir martalik moddiy yordam berildi. Masalan, «Gaston» mahallasida yashovchi Sohiba Akbarovaning murojaatidan so‘ng, bandligini ta’minlash maqsadida tomorqasiga 3 sotixli issiqxona qurib berildi.

Bundan tashqari, aholiga qulaylik yaratish maqsadida sektor hududida bir qator kommunikatsiya infratuzilmalari yaxshilandi. Xususan, «Porloq» MFY hududiga 9,2 km ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, mavjud suv inshootida ta’mirlash ishlari olib borildi. 7 km ichki yo‘llar asfaltlandi.

Bir so‘z bilan aytganda, sektor rahbari, podpolkovnik Doniyorjon Rahmonov va ishchi guruhning xalq bilan hamnafas ish olib borayotgani odamlarning roziligi va minnatdorligiga sabab bo‘lyapti. Zero, xalqni rozi qilish davlatimiz olib borayotgan insonparvar siyosatning ustuvor maqsadidir.

**Abduvosit SIDIQOV,**
**«Postda» muxbiri.**

*Farg‘ona viloyati.*

*В академических лицеях МВД*

# УСТРЕМЛЕННЫЕ В БУДУЩЕЕ

**Церемония вручения дипломов выпускникам 2023 года состоялась в Навоийском академическом лицее МВД Республики Узбекистан. На мероприятие были приглашены представители УВД Навоийской области, ветераны органов внутренних дел, родители выпускников.**

Выступившие отметили, что Навоийский академический лицей МВД последние три года находится в числе лидеров среди ведомственных лицеев. Так, в минувшем году в Академию МВД поступили 38 выпускников, в Университет общественной безопасности – 7, в другие высшие военно-образовательные учреждения республики – 4, в вузы МВД России – 3. 11 выпускников стали студентами авторитетных отечественных и зарубежных университетов.

Отметим, что из 161 выпускника 2022/23 учебного года 20 стали обладателями дипломов с отличием.





* * *

В Ташкентском академическом лицее № 2 МВД Республики Узбекистан состоялось торжественное мероприятие, посвященное очередному выпуску. Выступившие искренне поздравили юношей и девушек с окончанием образовательного учреждения, пожелали им успехов, выразили уверенность в том, что они будут высоко нести звание воспитанников лицея МВД.

**Соб. корр.**

# КЕЛАЖАККА ИШОНЧ БИЛАН

**Ҳуқуқий билим ва амалий тажрибаларга эга профессор-ўқитувчилар томонидан ёшларга Ватанни севиш, жиноятчиликка муросасиз қарши курашиш борасида малака ва кўникмалар бериб келинаётган ИИВ 1-сонли Тошкент академик лицейида ҳам битирув маросими бўлиб ўтди.**

Тошкент шаҳар ИИББ ППХБ саф майдонида бўлиб ўтган тадбир ҳақиқий тантанага айланиб кетди. Унда вазирлик ҳамда Тошкент шаҳар ИИББ раҳбарияти, фахрийлар, устозлар ва ота-оналар иштирок этишди.

Тадбирда Тошкент шаҳар ИИББ бошлиғининг ўринбосари, полковник А.Чориев иштирок этиб, Тошкент шаҳар ИИББ бошлиғининг битирувчиларга йўллаган табригини ўқиб эшиттирди. Шунингдек, ИИВ Фахрийлар кенгаши аъзоси, истеъфодаги генерал-майор Х. Хаджиматов ҳам сўзга чиқиб, битирувчиларга самимий тилакларини билдирди.

Ўз навбатида, битирувчилар уларга яратилаётган шароитлар учун миннатдор эканликларини изҳор қилишиб, билдирилаётган юксак ишончни оқлашга ваъда беришди.

**Ўз мухбиримиз.**



*Нет наркотикам!*

# БОРЬБА, В КОТОРОЙ МЫ ДОЛЖНЫ ОБЪЕДИНИТЬСЯ

**Ежегодно 26 июня во многих странах отмечается Международный день борьбы со злоупотреблением наркотическими средствами и их незаконным оборотом. Дата была установлена Генеральной Ассамблеей ООН 7 декабря 1987 года.**




В Узбекистане с незаконным оборотом наркотиков ведется непримиримая борьба. Правоохранительные органы при поддержке широкой общественности на постоянной основе проводят профилактические и специальные мероприятия, направленные на пресечение попыток реализации наркотических средств, привлечение к ответственности лиц, причастных к данным преступлениям.

Приведем несколько фактов, свидетельствующих о том, что в погоне за прибылью наркодельцы идут на любые ухищрения и уловки.

По данным, предоставленным Управлением борьбы с незаконным оборотом наркотических и психотропных веществ Службы уголовного розыска Оперативно-розыскного департамента МВД Республики Узбекистан, в ночь с 9 на 10 июня 2023 года в Зангиатинском районе Ташкентской области оперативные сотрудники задержали некоего Собира З., пытавшегося реализовать 700 граммов гашиша за 7 000 тысяч долларов США. В настоящее время оперативно-розыскные мероприятия продолжаются в целях определения канала поступления наркотиков.

По информации, поступившей в МВД Республики Узбекистан, стало известно, что несколько жителей Булунгурского района Самаркандской области используют дом, расположенный в одном из районов столицы, как потайное место для хранения сильнодействующих наркотиков, занимаются их распространением в городе Ташкенте. В ходе оперативно-розыскных и оперативно-технических мероприятий, проведенных с целью проверки, данная информация была подтверждена. Сотрудники уголовного розыска установили личности подозреваемых, провели их задержание. В качестве вещественных доказательств у Хасана Н. и Рахима В. изъяты 700 блистеров психотропного препарата «Регапен» и 50 блистеров аналогичного по действию препарата «Тропикамид». При осмотре дома в Чиланзарском районе блюстители правопорядка обнаружили психотропные препараты на сумму 963 300 000 сумов.

Слаженные действия стражей порядка дают возможность в максимально короткие сроки установить и задержать наркоторговцев. Так, недавно оперативные сотрудники МВД Республики Узбекистан и УВД Ташкентской области задержали жителя Кибрайского района столичной области Аскара Ш., подозреваемого в попытке незаконного сбыта психотропного препарата «Лирика», обнаруженного в салоне его автомобиля. Стоимость изъятого препарата составляет 600 000 сумов. Помимо этого, в квартире жителя Яккасарайского района Ташкента Махмуда П. оперативники обнаружили 30 142 единицы психотропного препарата «Лирика» розничной стоимостью 1 млрд 76 млн сумов.

В статье приведена лишь часть установленных фактов, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Сотрудники органов внутренних дел, выявляя и задерживая наркодельцов, не останавливаются на достигнутых результатах, продолжают активную борьбу по противодействию данному злу. В этой борьбе должны объединиться все, кому небезразлична судьба молодого поколения.

(Имена изменены в интересах следствия.)

**Георгий АНДРЕЕВ.**

*Ишчи гуруҳ фаолиятидан*

# МАҚСАД – АҲОЛИ РОЗИЛИГИГА ЭРИШИШ

**Президентимизнинг топшириғига асосан барча давлат органлари ва ташкилотлар зиммасига ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, маҳаллаларни жиноятдан холи, хавфсиз ҳудудга айлантириш, аҳолининг муаммоларини манзилли бартараф этиш бўйича устувор вазифалар белгиланган.**

Ана шу вазифаларнинг амалий ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигидаги идоралараро республика ишчи гуруҳи Хоразм вилоятининг барча туман-шаҳарларида бўлиб, аҳоли муаммоларини манзилли бартараф этиш чораларини кўрди. Ишчи гуруҳининг ўрганишлари якуни бўйича ўтказилган танқидий йиғилишда аҳоли мурожаатлари билан ишлаш ва муаммоларни жойида бартараф этиш мақсадида татбиқ этилган замонавий методларнинг амалиётда қўлланиш даражасига алоҳида эътибор қаратилди. Шунингдек, сектор раҳбарларининг маҳалла бешликлари билан ҳамкорликда аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш, камбағалликни қисқартириш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда «Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида олиб бораётган фаолияти таҳлил қилинди.

Хусусан, ўрганишлар жараёнида эллик нафардан ортиқ туман-шаҳар сектор раҳбарлари ҳамда уч минг нафарга яқин маҳалла бешлигига аҳолининг муаммоларини ҳал этиш борасида янги иш услубларини ўргатиш бўйича ўқув-амалий семинарлар ўтказилди. Бундан ташқари, олий таълим муассасаларида минг нафарга яқин талабалар орасида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш ва ёшларни экстремистик оқимлар таъсиридан асраш бўйича ҳуқуқий тарғибот тадбирлари ўтказилди.




Ижтимоий ҳимоя йўналишида кам таъминланган ва ижтимоий ёрдамга муҳтож мингдан ортиқ оила ўрганилиб, улардан келиб тушган 543 та мурожаатларнинг 359 таси ҳал этилиши таъминланди, қолган 184 таси ижро учун сектор раҳбарларига топширилди. «Хива ногиронлиги бўлган шахслар учун эркаклар интернат уйи»да қариялар ва «Оилавий болалар уйлари»да етим болалар ҳолидан хабар олиниб, маданий тадбирлар ташкил этилди.

Аҳоли саломатлигини яхшилаш мақсадида етти минг нафардан ортиқ фуқаролар сайёр тиббий кўрикдан ўтказилиб, 908 нафар беморга тиббий хизмат, 426 нафар қарияга ижтимоий ёрдам кўрсатилди. Соғлиғида муаммоси бўлган 1652 нафар фуқарога бепул дори-дармон, ногиронлик аравачалари, эшитиш мосламалари ва бошқа анжомлар тарқатилди. Олтмиш нафарга яқин фуқарога даволаниш учун, саксон нафарга яқин фуқарога эса санаторийларга йўлланмалар берилди.



Ишчи гуруҳи ташаббуси билан 20 июнь куни Урганч шаҳри «Ёшлар маркази»да жорий йилда мактабни намунали тугатган 160 нафар ўқувчига олтин ва кумуш медаллар топшириш маросими ўтказилиб, концерт дастури ҳам ташкил этилди. Тадбирда ёшларнинг 350 нафари маданий ҳордиқ олишди.

Шовот туманидаги Ал-Хоразмий номидаги 32-сонли мактаб-интернатда ташкил этилган «Гулшан» болалар оромгоҳида «Темир дафтар» ва «Аёллар дафтари»га киритилган оилаларнинг 110 нафар фарзандларига қўғирчоқ театрининг ижодкорлари томонидан тайёрланган саҳна кўринишлари намойиш этилиб, совғалар берилди.



Қорақалпоғистон Республикасидаги Республика ишчи гуруҳининг ўрганишлари доирасида Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобожонов бошчилигида ҳуқуқбузарликлар ва жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш, ички ишлар органлари ходимлари ўртасида хизмат интизоми ҳамда қонунийликка риоя этилиши бўйича видеоселектор йиғилиши бўлиб ўтди.

Йиғилишда Давлатимиз раҳбарининг жорий йил 30 март ҳамда 12 июндаги Қорақалпоғистонга ташрифи давомида ҳудуднинг ижобий тажрибасини яратиш, ижтимоий профилактика фаолиятини амалиётга кенг татбиқ этиш бўйича берган топшириқлари ижроси таҳлил қилинди.

Таъкидлаш жоизки, ишчи гуруҳ ўрганишларида мутасадди раҳбарлар асоссиз хотиржамликка берилиши, ташаббускорлик етишмаслиги оқибатида баъзи бир турдаги жиноятлар кўрсаткичи ошганлиги кузатилган. Шу билан бирга, мурожаатлар билан ишлаш аҳволи, муаммоли фуқаролар бўйича профилактика инспекторлари томонидан хулоса бериш, ишсиз ва соғлиғини йўқотган шахслар ҳамда низоли оилалар билан манзилли ишлаш аҳволи қониқарсизлиги аниқланган.

Йиғилишда фаолиятида бир қатор камчиликка йўл қўйганлиги учун Чимбой, Шуманай тумани ИИБ бошлиқлари ҳамда Шуманай, Беруний тумани ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосарларига «ҳайфсан» интизомий жазо эълон қилиниб, бир гуруҳ раҳбарлар огоҳлантирилди.

Шундан сўнг Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича сектор раҳбарлари иштирокида амалга оширилган ишлар юзасидан семинар йиғилиши бўлиб ўтди. Ишчи гуруҳнинг ўрганишлари доирасида амалга оширилган ишлар ва аниқланган камчиликлар таҳлил қилинди.

Ўрганишлар жараёнида аҳоли муаммоларини ҳал этиш, бандликни ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш, маҳаллаларда хавфсиз шароит яратиш, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш масалаларига катта эътибор қаратилди.

Аҳоли муаммоларини ҳал этиш борасида янги иш услубларини ўргатиш бўйича маҳаллаларда 58 маротаба ўқув-амалий семинарлар, олий ўқув юртларида ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш ва ёшларни экстремизм оқимларидан асраш бўйича ҳуқуқий тарғибот тадбирлари ўтказилди. Бозор ва шифохоналарда аҳолини жиноятлардан огоҳлантириш мақсадида 3855 дан ортиқ тарғибот материаллари тарқатилди. 15 та «қизил» тоифадаги маҳаллада жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича муҳокамалар ташкил этилди.

Кам таъминланган ва ижтимоий ёрдамга муҳтож 988 та оила ўрганилиб, улардан келиб тушган 411 та мурожаатнинг 356 таси ҳал этилди. 163 та кўп қаватли уйнинг ертўла, том қисми ва коммуникация тизими таъмирланиб, электр, табиий газ, оқова ва ичимлик суви тармоғидаги носозликлар бартараф этилди.

Табиий газ тармоғига уланмаган маҳаллалар аҳолисига 3271 та суюлтирилган газ баллони тарқатилди. 5215 нафар фуқаро сайёр тиббий кўрикдан ўтказилиб, 536 нафарига тиббий хизмат, 344 нафар кекса ёшдагиларга ижтимоий ёрдам кўрсатилди. Соғлиғида муаммоси бўлган 921 нафар фуқарога бепул дори-дармон, 54 нафарига санаторийларга йўлланма берилди.

Олис маҳаллаларда озиқ-овқат ярмаркалари ташкил этилиб, аҳолига керакли маҳсулотлар арзонлаштирилган нархда сотилиши таъминланди. Ташкил этилган меҳнат ярмаркаларида 23 нафар фуқаронинг бандлиги таъминланди, 11 нафар ишсиз доимий ишга, 12 нафари эса ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб этилди.

Маҳаллаларда 16 та сайёр қабул ўтказилиб, 162 та мурожаат ҳал этилди, 972 нафар фуқарога сайёр давлат хизматлари кўрсатилди. 69 та низоли оила ўрганиб чиқилиб, 34 та оилавий муаммолар бартараф этилди, 16 нафар аёлга «ҳимоя ордери» расмийлаштирилди.

Бўлиб ўтган йиғилишларда хизмат фаолияти давомида асоссиз хотиржамликка берилиб, бир қатор камчиликка йўл қўйган сектор раҳбарлари ҳамда масъуллар огоҳлантирилиб, аниқланган камчиликларни тез фурсатда бартараф этиш бўйича топшириқлар берилди.

**ИИВ Ахборот хизмати.**



# QO‘SHSAHIFADA —

# HAR JABHADA FAOL KINOLOGLAR

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi xizmati Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Kinologiya bo‘linmasi xodimlari joriy yilning o‘tgan davri mobaynida hududda sodir etilgan jinoyatlarning 166 tasi bo‘yicha voqea joyiga xizmat itlari bilan chiqib, 114 tasining ochilishiga o‘z hissalarini qo‘shishdi.**



Nukus tumani «Samanbay» ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi fuqaro J. G‘arribayevning uyi oldidagi ekin maydonida bog‘log‘li turgan bir bosh qoramoli o‘g‘irlab ketildi. Voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi tarkibida kinologiya bo‘linmasi instruktor-kinologi, kichik serjant Sh.Jarekeyev ham bor edi. U o‘ziga biriktirilgan «Garri» laqabli xizmat iti bilan darhol ishga kirishdi. Qidiruv harakatlari natijasida mazkur o‘g‘rilikni shu ovulda yashovchi, 2001-yili tug‘ilgan B.S. hamda uning tanishi 2001-yilda tug‘ilgan T.Sh. sodir etganligi aniqlanib, ular qo‘lga olindi.



Kinologiya bo‘linmasi xizmat itlari pitomnigiga fuqarolardan jinoyat va hodisalar yuzasidan kelib tushayotgan xabarlarni kuzatib turish imkonini beruvchi «102» tizimi o‘rnatilib, ishga tushirilgan. Bu o‘z navbatida sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish uchun kinologlarning tezkor harakatlanishi, voqea joyiga o‘z vaqtida yetib borishida muhim omil bo‘lmoqda.

Yaqinda soha vakillarining jismoniy tayyorgarligi va jangovar shayligini oshirish maqsadida «A’lochi kinolog» ko‘rik-tanlovining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichi o‘tkazildi. Musobaqada xodimlar o‘zlariga biriktirilgan xizmat itlari bilan 8 ta shart bo‘yicha o‘zaro kuch sinashishdi. Hozirda musobaqaning hududiy bosqichida g‘olib deb topilgan xodimlar O‘zbekiston Respublikasi IIV bosqichida ishtirok etish uchun qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishmoqda.

Bo‘linma xodimlari nafaqat osoyishtalikni saqlash, huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kelajagimiz egalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida ham faol qatnashishmoqda. Yaqinda ular Nukus shahrida joylashgan «Aral» bolalar oromgohida bo‘lib, xizmat itlari ishtirokida ko‘rgazmali chiqishlarini namoyish etishdi. Kinolog xodimlarning umumiy va maxsus kurs bo‘yicha bajargan mashqlari bolalarda katta qiziqish uyg‘otdi.

**Sharapat UTEPOV,**
**katta serjant.**

# MAZMUNLI VA MANFAATLI UCHRASHUV

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV rahbariyatining tashabbusi bilan vazirlik Faxriylar kengashining bir qator a’zolari, Yoshlar yetakchisi, Xotin-qizlar kengashi a’zolari Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasida bo‘lishdi.**





Mehmonlar Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoni shaxsiy tarkibi bilan uchrashishdi. So‘ngra viloyat IIBda tashkil etilgan kutubxona, ichki ishlar organlarining tarixi aks etgan muzey, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish va sodir bo‘lgan jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etishga salmoqli hissa qo‘shayotgan «Call center» faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ular «Nurota» ziyoratgohida ham bo‘lishdi. Kelgusida bu kabi tadbirlarni tez-tez o‘tkazib turishga kelishib olindi.

**Farxad SANKIBAYEV,**
**Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Faxriylar kengashi raisi,**
**iste’fodagi podpolkovnik.**

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI IIV



## OLIS OVULNING KUYINCHAK POSBONI

**Inson qadrini ulug‘lash va ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya qilish islohotlardan ko‘zlangan bosh maqsaddir. Ushbu ezgu maqsad yo‘lida Qoraqalpog‘istonning chekka hududlaridan biri sanalmish Bo‘zatov tumanida ham qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda joylardagi profilaktika inspektorlarining ham hissasi katta.**



Tumanning «Aspantay» ovul fuqarolar yig‘inida xizmat olib borayotgan profilaktika inspektori, mayor Ziuatdin Reymkulov ham ana shunday fidoyi xodimlardan. Joriy yilning o‘tgan davrida ovul faollari bilan hamkorlikda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish yuzasidan olib borilgan ishlar natijasida hududda birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Shuningdek, 60 nafardan ortiq fuqaro turli huquqbuzarliklar sodir etganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Hududda «mahalla beshligi» tamoyili asosida ish olib borilishi davomida profilaktika inspektori tomonidan 22 ta xulosa berilib, ulardan bir nechtasi o‘z yechimini topgan. Jumladan, o‘rganishlar davomida fuqaro J.Atrauovning vaqtincha ishsiz ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur xulosa yoshlar yetakchisi Z.Kobeysinova tomonidan o‘rganib chiqilib, u «Porlitau» mahalla fuqarolar yig‘inidagi qishloq vrachlik punktiga ishga joylashtirildi.

*– «Aspantay» ovul fuqarolar yig‘inida 3400 nafardan ortiq fuqaro istiqomat qiladi. O‘zim ham Bo‘zatov tumanida tug‘ilib o‘sganim bois, bu yerda yashovchi deyarli barcha fuqarolarni taniyman. Mahalliy aholining yashash tarzi, shart-sharoitini yaqindan bilaman, ularning muammolarini o‘zimnikidek his etaman. Ularni hal etish borasida ovul fuqarolar yig‘ini raisi Amangeli Temirov bilan bamaslahat ish olib boryapmiz. Hamkorligimiz tufayli hududimizning jinoyatdan xoli bo‘lishiga erishdik, – deydi profilaktika inspektori, mayor Z. Reymkulov.*

Shuningdek, fuqaro B.Abdullayevning ishsiz ekanligi yuzasidan berilgan xulosa hokim yordamchisi M.Tolepov tomonidan o‘rganilib chiqildi. Qo‘lida hunari borligi hamda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagi hisobga olinib, unga 32 mln so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘i ajratilishida amaliy yordam ko‘rsatildi. Hozirda ushbu fuqaro ajratilgan kredit hisobidan deraza romlarini ishlab chiqarish sexini ishga tushirib, doimiy daromad manbayiga ega bo‘ldi.

Mayor Z.Reymkulov o‘ziga biriktirilgan hududda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan uchrashuvlarni muntazam ravishda o‘tkazib keladi. Targ‘ibot ishlari natijasida yashash joylarida ov miltig‘ini noqonuniy tarzda saqlab kelayotgan uch nafar fuqaro o‘qotar qurollarni o‘z ixtiyori bilan ichki ishlar bo‘limiga topshirdi.

**O‘ktam RAMANOV,**
**kapitan.**

## HAMKOR TASHKILOTLAR KO‘MAGIDA

**Adashganga yordam berish, mehr-oqibat ko‘rsatish xalqimizga xos fazilatdir. Probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish, ularning qayta jinoyatga qo‘l urishining oldini olish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish muhim vazifalardan hisoblanadi.**



Bu borada Nukus shahar IIOFMB Probatsiya guruhi tomonidan hamkor tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda joriy yil boshidan buyon 256 nafar shaxs ro‘yxatga olinib, sud hukmlari ijroga qaratilgan. Umumiy hisobda turuvchilar soni esa 685 nafarni tashkil etadi.

Ayni kunga qadar probatsiya nazorati ostidagi fuqarolardan 45 nafarining bandligi ta’minlandi. Jumladan, S.K. probatsiya guruhi tomonidan berilgan yo‘llanma asosida «Nukus kommunal servis» MChJga ishga joylashtirildi. Shuningdek, tashkil etilgan mehnat yarmarkalari orqali 12 nafar fuqaro ishli bo‘ldi.

2023-yilning besh oyida jazo muddatini o‘tash mobaynida o‘zini yaxshi tomondan ko‘rsatib, zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni o‘z vaqtida bajargan 128 nafar fuqaro bo‘yicha sudga taqdimnomalar kiritildi.



Ular jazoni o‘tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilindi.

Masalan, shaharning «Qizilqum» makon fuqarolar yig‘inida yashovchi A.B. o‘g‘rilik jinoyati sodir etgani uchun uch yillik ozodlikni cheklash jazosini o‘tab kelayotgan edi. O‘tgan davr mobaynida xulq-atvorining yaxshi tomonga o‘zgargani, belgilangan qoidalarga rioya etgani hisobga olinib, shartli ravishda muddatidan oldin jazodan ozod qilindi. Hozirda shahardagi kichik korxonalardan birida mehnat qilmoqda.

Afsuski, yo‘l qo‘ygan xatosidan, qolaversa, tayinlangan jazodan tegishli xulosa chiqarmagan, berilgan imkoniyatning qadriga yetmagan shaxslar ham uchrab turibdi. Joriy yilning besh oyi davomida probatsiya guruhi hisobida bo‘lgan 14 nafar fuqaro jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagani uchun ularning jazosi jinoyat ishlari bo‘yicha Nukus shahar sudi tomonidan og‘irroq turiga almashtirildi.

**Azamat ALLAMBERGENOV,**
**mayor.**

*Молодежь – наше будущее*






# ВСТРЕЧА В «МЕТАЛЛУРГЕ»

**В столичной области проходят встречи руководства ГУВД и его территориальных подразделений с молодежью.**

Очередное такое мероприятие состоялось во Дворце культуры «Металлург» города Алмалыка. В ходе встречи заслушан ряд обращений, приняты меры к их разрешению. Группе молодежи и их родителям были вручены ценные подарки, предоставлены средства на покрытие расходов на лечение, оказана единовременная материальная помощь за счет средств фонда поддержки.

*Женский вопрос*

# ВАЖНЕЙ ВСЕГО – ПОГОДА В ДОМЕ...

**«Семьи, которые желают конструктивно преодолеть возникший конфликт, должны фокусироваться не на взаимных обвинениях, а на разрешении проблемы. При этом в ходе переговоров сторонам важно искать компромиссные пути», – говорит старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ Нурабадского района старший лейтенант Мариям Аскарова.**

Во многом благодаря целенаправленной деятельности, неравнодушию инспектора по вопросам женщин установлены мир и спокойствие в семье, проживающей в махалле Иттифок Нурабадского района.

– Семья была на грани развода, – отмечает старший лейтенант М. Аскарова. – Разногласия начались из-за конфликта, возникшего в результате того, что родители мужа не давали спокойно жить супругам, которые, кстати, воспитывают двоих детей, – отмечает наша собеседница.

Сложные взаимоотношения сопровождались судебными разбирательствами, вынужденным проживанием невестки в отцовском доме, нахождением ее в стационаре из-за ухудшения здоровья, выдачей женщине охранного ордера.

– Морально-психологическая обстановка в семье долго не выравнивалась, пока не были приняты решительные меры, – отмечает старший лейтенант М. Аскарова. – Работа, которая проводилась во взаимодействии с инспектором профилактики, со старейшинами и активистами махалли, увенчалась успехом. Члены семьи осознали свои ошибки, ячейка общества воссоединилась. Думаю, больше всех этому рады дети...

Ключевое направление деятельности старшего лейтенанта Мариям Аскаровой – обеспечение прав и законных интересов женщин, оказавшихся в непростой жизненной ситуации.

**Гулшан МИРЗАЕВА.**
*Самаркандская область.*



*Эстафета поколений*



# «ИДУ ПО ЕГО СТОПАМ»

**Каждый, стоящий перед выбором будущей профессии, задается вопросом: «На кого быть похожим?». Часто молодые люди хотят походить на своих родителей, видя в них достойный пример, стремятся быть как они.**

Когда наступила пора выбора профессии, я нисколько не сомневаясь принял решение продолжить дело отца – стать стражем правопорядка. Основательно подготовившись, обретя уверенность в своих знаниях, сдал документы для поступления в Академию МВД Узбекистана. Набрав высокие баллы на вступительных испытаниях, был зачислен курсантом данного авторитетного вуза.

Мой отец, Нормурод Ражабов, начинал профессиональную деятельность в службе охраны УВД области. Затем в течение многих лет плодотворно работал в службе профилактики. За образцовую службу не раз был отмечен руководством ведомственными наградами. На заслуженный отдых вышел в звании капитана.

Завершив обучение в Академии в 2013 году, равняясь на старших коллег, я четыре года служил инспектором профилактики в ОВД города Кагана. Затем работал следователем, старшим следователем следственного отдела. В настоящее время являюсь старшим следователем следственного отдела при ОВД Гиждуванского района. Для меня важны наставления отца о том, что надо служить честно и добросовестно, постоянно работать над повышением профессионального уровня. Отец – мой первый наставник. Горжусь им, иду по его стопам.

**Нурали РАЖАБОВ,**
**майор.**
*Бухарская область.*

*Ma'naviyat va ma'rifat darsi*

# SAYLOV – SAYLOVCHILAR XOHISH-IRODASINING IFODASI

**Ma'lumki, joriy yil 1-maydan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri kuchga kirdi. Asosiy qonunimizda davlat boshqaruvining oliy organlariga doir bir qator o'zgarishlar joy olgan. Jumladan, Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Shuningdek, davlat rahbari muddatidan ilgari Prezident saylovini tayinlashga haqli ekanligi belgilandi.**

**Yurtboshimiz ushbu huquqdan foydalanib, 2023-yil 8-mayda «Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, 2023-yil 9-iyul kuni muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkaziladi.**

Mamlakatimiz hayotida juda katta ahamiyatga ega ushbu voqeaga ham sanoqli kunlar qoldi. Shuning uchun quyida Prezident saylovining ba'zi jihatlariga to'xtalib o'tamiz. Avvalambor, shu kunlarda saylovoldi tashviqotlari qizg'in ketayotganini hisobga olib, ushbu tadbirlar borasida tushuncha berib o'tsak.

Saylovoldi tashviqoti omma oldida ochiq munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, fuqarolarning yig'ilishlari, intervyular, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, roliklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.




**Tashviqot:**

ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'i orqali;

bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish orqali;

saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Nomzodlar va siyosiy partiyalarga bosma, ko'rgazmali, audiovizual materiallarni, fonogrammalarni, bosma mahsulotning elektron shakllarini va boshqa tashviqot materiallarini moneliksiz chiqarish hamda tarqatish uchun teng sharoitlar yaratiladi. Tashviqot materiallari O'zbekiston Respublikasi hududida tayyorlanishi kerak.

Nomzodlarga va siyosiy partiyalarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali tashviqot uchun teng sharoitlar yaratiladi. Saylovchilar bilan uchrashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi. Saylovchilar bilan uchrashuvlarni o'tkazish joyi va vaqti haqida okrug yoki uchastka komissiyasiga ma'lum qilinadi, mazkur komissiyalar bu haqda saylovchilarni oldindan xabardor qiladi.

Nomzod yoki uning ishonchli vakili boshqa nomzod yoki uning ishonchli vakili bilan birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishga yoxud boshqa nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 43-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod o'n besh nafarga qadar ishonchli vakilga ega bo'lishga haqli. Ishonchli vakillar nomzodga saylov kampaniyasini o'tkazishda yordam beradi, saylash uchun tashviqot olib boradi, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan bo'ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari uning taqdimnomasiga binoan, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinadi. Markaziy saylov komissiyasi ularga tegishli guvohnomalar beradi. Nomzod saylovga qadar o'z ishonchli vakilini tegishli saylov komissiyasiga ma'lum qilgan holda istalgan vaqtda vakolatidan mahrum qilishi va uni boshqasi bilan almashtirishi mumkin. Ishonchli vakil istalgan vaqtda o'z vakolatlari zimmasidan soqit qilishga haqli. Ishonchli vakil saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin emas.

2023-yil 20-iyun kuni Markaziy saylov komissiyasi Saylov kodeksiga binoan, muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilar uchun saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish o'tkazilishi yuzasidan qaror qabul qildi. Unga ko'ra, muddatidan oldin ovoz berish 2023-yil 28-iyun kuni boshlanib 2023-yil 5-iyul kuni yakunlanishi belgilandi.




**O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi sayti materiallari asosida Bobomurod TOSHEV tayyorladi.**

# ВЫБОРЫ – ВЫРАЖЕНИЕ ВОЛЕИЗЪЯВЛЕНИЯ ИЗБИРАТЕЛЕЙ

**Республика Узбекистан уверенно идет по пути модернизации и углубления демократических реформ. Фундаментом реализации Стратегии развития Нового Узбекистана является обновленная Конституция, принятая на основе всенародного референдума, определяющая приоритеты дальнейшего развития государства и общества.**




Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев 8 мая в ходе встречи с членами палат Олий Мажлиса, представителями политических партий и общественности выдвинул инициативу о проведении досрочных Президентских выборов с учетом того, что в соответствии с Основным законом кардинально реформируются все звенья власти, серьезно меняются отношения и баланс между ними, «обновленная Конституция выдвигает перед Президентом, парламентом, правительством, министрами, хокимами безотлагательные, новые политические и социально-экономические задачи».

Согласно ст. ст. 110 и 128 Конституции, а также ст. 66 Избирательного кодекса главой государства издан Указ «О назначении досрочных выборов Президента Республики Узбекистан».

В соответствии с документом досрочные выборы Президента Узбекистана назначены на 9 июля 2023 года. Данное политическое мероприятие будет проходить на основе избирательного законодательства, которое усовершенствовано с учетом мнений и предложений народа, в соответствии с международными принципами.

Согласно законодательству выборы Президента Узбекистана будут проводиться на основе всеобщего, равного и прямого избирательного права при тайном голосовании. Право избирать имеют граждане, достигшие 18 лет. Каждый избиратель имеет один голос. Право голоса, равенство и свобода волеизъявления гарантируются законом.

Граждане, признанные судом недееспособными, а также лица, содержащиеся в местах лишения свободы по приговору суда за совершенные тяжкие и особо тяжкие преступления, могут быть лишены права участия в выборах только в соответствии с законом и на основе решения суда. В любых других случаях прямое или косвенное ограничение избирательных прав граждан не допускается.

7 июня 2023 года стартовала предвыборная агитация – деятельность, направленная на доведение до избирателей сути предвыборных программ. В этом процессе значима роль доверенных лиц, сфокусированных на агитационной работе с избирателями, разъяснении программных целей и задач того или иного кандидата в ходе встреч с избирателями.

В соответствии со ст. 43 Избирательного кодекса кандидат в Президенты вправе иметь до 15 доверенных лиц, которые представляют его интересы во взаимоотношениях с государственными органами и общественными организациями. Это позволяет расширить охват агитационной работы, повышает уровень осведомленности электората.

Центральной избирательной комиссией зарегистрированы доверенные лица кандидатов в Президенты от Народно-демократической партии Узбекистана, Движения предпринимателей и деловых людей – Либерально-демократической партии Узбекистана, Социал-демократической партии Узбекистана «Адолат» и Экологической партии Узбекистана.



Полномочия доверенных лиц ограничиваются деятельностью именно в период агитационной работы, то есть им запрещено проводить мероприятия за день до голосования и в день выборов. Они обязаны соблюдать правила, закрепленные в Избирательном кодексе и Положении о доверенных лицах, к которым относится запрет на проведение агитации с предоставлением избирателям денежных средств, услуг, товаров. Также запрещено распространять недостоверную информацию о кандидате, порочащую его честь и достоинство.

Мероприятия доверенных лиц могут проводиться в партнерстве с другими доверенными лицами кандидатов, то есть допустимо проводить совместные встречи с избирателями.

Наблюдатели от политических партий, органов самоуправления граждан, а также от других государств и международных организаций осуществляют свою деятельность на основе мандатов, выданных соответствующими комиссиями.

Представители аккредитованных СМИ имеют право освещать все мероприятия, связанные с подготовкой и проведением выборов; присутствовать на заседаниях избирательных комиссий; получать копии решений избирательных комиссий для освещения в СМИ; присутствовать в помещениях для голосования, в том числе при подсчете голосов; излагать свое мнение о подготовке к выборам, его проведении и др.

При этом представителям СМИ запрещается оказывать влияние на избирателей, распространять какие-либо незаконные агитационные материалы или литературу; находиться в кабине или комнате для тайного голосования при внесении избирателем отметок в избирательном бюллетене; спрашивать у избирателей, как они проголосовали; вмешиваться в деятельность участковой избирательной комиссии, в том числе при опечатывании урн для голосования, их вскрытии, подсчете голосов; публиковать в день выборов и за день до начала голосования результаты опросов общественного мнения, прогнозы результатов выборов, иные исследования, связанные с проводимыми выборами.

Голосование проводится в день выборов с 8.00 до 20.00 часов.

По прибытии в здание для голосования избиратель предъявляет члену участковой избирательной комиссии документ, удостоверяющий его личность. Он расписывается в списке избирателей. Ему выдается избирательный бюллетень.

Избиратель заполняет бюллетень в кабине или комнате для тайного голосования: ставит знак «+» или «√» либо «х» в пустом квадрате, расположенном справа напротив фамилии того кандидата, за которого он голосует.

Заполненный бюллетень голосующий опускает в избирательную урну. Опустив бюллетень в урну, избиратель направляется к выходу.

При заполнении избирательного бюллетеня запрещается присутствие других лиц, кроме голосующего.

Избиратель, не имеющий возможности самостоятельно заполнить бюллетень, вправе пригласить в кабину или комнату для тайного голосования другое лицо по своему усмотрению, за исключением лиц, входящих в состав избирательной комиссии, наблюдателей.

В случаях, когда отдельные избиратели по состоянию здоровья или по другим причинам не могут прибыть в помещение для голосования, участковая избирательная комиссия по их просьбе организует голосование по месту пребывания этих избирателей.

Избиратель, который не может находиться по месту жительства в день выборов, имеет право проголосовать досрочно. Согласно решению Центральной избирательной комиссии Республики Узбекистан досрочное голосование пройдет с 28 июня по 5 июля текущего года.

**Подготовил Радик ТУМПАРОВ, корреспондент «На посту».**

*Хавфсиз ҳудуд*

# ХИЗМАТДА ҲАМИША ҲУШЁР

**Бухоро вилояти ИИБ Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси ходимлари, айниқса, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаси инспекторлари ўзларининг фидойилиги, изланувчанлиги, ўзаро аҳиллиги билан ҳамкасбларига ўрнак бўлиб келмоқда. Уларнинг хизмати қанчалик машаққатли бўлмасин, ўз вазифасини талаб даражасида уддалашяпти. Бошқарма хизмат ҳудудидаги темир йўлнинг умумий узунлиги 557 километрга чўзилган бўлиб, 15 та бекат ва 8 та разъездни ўз ичига олади. Бундан ташқари, осойишталик посбонлари «Бухоро» халқаро аэропортида ҳам хизмат қилишади.**



– Ҳудудимиздаги темирйўлнинг 19 километри ўралган бўлса-да, аммо қолган асосий қисми очиқ ҳолатдалиги бизга катта масъулият юклайди. Ҳудудда 100 тадан ортиқ шохобча йўллари ташкил этилган бўлиб, ўғрилик ва талончилик жиноятларининг олдини олиш мақсадида тарғибот ишларини кучайтирганмиз, – дейди бошқарманинг ҲПБ бошлиғи, подполковник Расул Ҳусенов. – Қолаверса, темирйўл барқарорлигини таъминлаш, тезкор вазиятни назорат қилиш, вагонлардаги юкларни бус-бутунлигича асраш, жиноятларга йўл қўймаслик мақсадида ҳамкорлар билан ҳамжиҳатликда иш кўраётганимиз жиноят ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг йилдан-йилга камайишида асосий омил бўлиб хизмат қиляпти.

Қатъий хизмат интизоми ва юксак касбий маҳоратини муваффақият гарови деб билган ходимлар томонидан аҳоли ўртасида мунтазам равишда «Хавфсиз ҳудуд», «Хавфсиз йўналиш», «Темир йўлларда хавфсиз кун» ҳамда «Профилактика куни» каби профилактик тадбирлар, суҳбатлар ва учрашувлар ўтказиляпти. Тадбирларда асосан аэропорт ва темирйўлларнинг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти, ушбу объектларга шикаст етказиш жавобгарликка сабаб бўлиши, темирйўл атрофида ёш болаларни қаровсиз қолдириш, унга яқин жойда чорва молларини боқиш мумкин эмаслиги фуқароларга тушунтириб келинмоқда. Мазкур қоида ва талабларга риоя этмаслик қандай кўнгилсиз оқибатларга олиб келиши хусусида ҳаётий воқеалар келтириб ўтилмоқда.

Бундан ташқари, профилактика инспекторлари томонидан аэропорт ва темирйўл кесишмасига яқин жойлашган уйлар ўрганилиб, хонадон эгаларига юқоридаги тартиб-қоидаларга амал қилиш лозимлиги эслатиб турилибди. Шунинг учун ҳам тадбирлар чоғида кўплаб жиноят ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг олди олинганини алоҳида таъкидлаш лозим. Мисол учун, темирйўл транспортларида турли хил ҳуқуқбузарлик содир этганлиги учун 465 нафар фуқаро ички ишлар органларига олиб келинди. Шундан 444 нафарига маъмурий баённома тузилиб, ваколат доирасида жарималар белгиланди. Қолаверса, турли темирйўл корхона ва ташкилотларидан майда ташмачилик билан шуғулланиб юрган 7 нафар шахс аниқланиб, айбдорларга нисбатан жазонинг муқаррарлиги таъминланди. 4 нафар вояга етмаган оз миқдорда ташмачилик ҳолатини содир қилганлиги учун ота-онасига нисбатан ҳужжатлар расмийлаштирилиб, вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссияларга юборилди. Яна 3 нафар фуқаро аниқ яшаш манзили ва иш машғулот турига эга бўлмаганлиги боис реабилитация марказига жойлаштирилди.

Мазкур соҳа вакиллари хоҳ вокзалда бўлсин, хоҳ аэропортда хизмат ўтаётганда ҳамиша ҳушёрдир. Улар йўловчиларга ёрдам беришга, ҳуқуқбузарликларни бартараф этишга ҳар дақиқа шай туришади. Шу боис ҳам ходимларга юклатилган масъулият юқори. Ҳар қандай вазиятда тез, аниқ ва тўғри ҳаракат қилишлари лозим бўлади. Қисқаси, соҳавий хизматларнинг барча ходимлари бир тану бир жон бўлиб хизмат олиб боришмоқда.

**Мирзоқул АҲАДОВ,**
**«Postda» мухбири.**

*Бухоро вилояти.*

*Хизматдан ташқарида*

# ДЕҲҚОНЧИЛИКДА БАРАКА БОР

**Фарзанд Яратганнинг улуғ неъмати деб бежизга айтилмаган. Унинг кичик муваффақияти ҳам ота-онага катта қувонч ва ҳузур бағишлайди. Нуротанинг пурвиқор тоғлари бағрида жойлашган «Чўя» қишлоғида истиқомат қилаётган Ҳусниддин ака ва Нурия опа ҳам фарзандлари бахтидан масрур.**

Оиланинг тўнғичи Сардор ёшлигидан спортга қизиқди. Кўчада болалар билан чиллак ўйнаш, тўп тепиш, кураш тушишга ҳам, ота-онасига уй юмушларида ёрдам беришга ҳам улгурарди. Унинг 2019 йилда Навоий вилояти ИИБ ходимлари сафига қабул қилингани нафақат оила аъзолари, балки бутун чўяликлар қувончига сабаб бўлди. Қишлоғимиздан яна бир осойишталик посбони чиқди дея кексалар уни алқаб, дуо қилишди.Лейтенант Сардор Жиянмуродов қисқа вақт ичида устозлари кўмагида касб сирларини пухта эгаллади. У ҳозирда Нурота тумани ИИБ ЖҚБ ходими лавозимида жиноятларни «иссиқ изида» фош этишга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Ҳусниддин аканинг хонадонида файзу барака бор. Бунинг сири шундаки, оила бошлиғи кўп йиллардан буён деҳқончилик, чорвачилик ҳамда узумчилик билан шуғулланиб келади. Бу ишда унга ўғли Сардор яқин кўмакчи.



– Мавсум қизиганда кечалари алламаҳалгача ҳам далада ишлашимизга тўғри келади. 100 гектар еримиз бор. Унга буғдой, тарвуз, қовун экканмиз. Бир қисмида узумзор барпо этдик. Ҳудудимиз дашт бўлгани сабабли етиштирадиган ҳосилимиз ёғин-сочинга боғлиқ. Шунинг учун лалмикор ерларга мўлжалланган экин навларидан фойдаланамиз. Худога шукр, ризқимизга яраша ҳосил оляпмиз. Ёзнинг неъмати бўлган ширин-шакар қовун-тарвузларни туман аҳолисига, қолаверса, шаҳарликларга ҳам етказиб беряпмиз, – дейди Сардор Жиянмуродов. – Йилдан-йилга тажриба орттиряпмиз. Бу йил кечпишар тарвуз навларидан кўпроқ етиштириш ва қишгача сақлаш чора-тадбирларини кўрамиз.

Хизматини аъло даражада адо этаётган қаҳрамонимиз касбдошлари орасида обрў-эътибор қозонган. Вазифасини бажариш йўлида ҳар қандай қийинчиликни енгишга тайёр. Жорий йилда 20 дан ортиқ жиноятни фош этишга, кўплаб ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга муваффақ бўлган. Ўз ўрнида у спортни тарғиб қилишда ҳам ташаббускор.

«Деҳқон ишлаб дон сочар, элга ризқ йўлин очар» деган нақл нақадар ҳақконий, ҳаётий. Яна бир ҳаётий ҳақиқат шундаки, ҳалол меҳнат қилиб топилган ризқрўзда барака бор. Ҳар икки ҳақиқатнинг ҳам ҳаётийлигига Ҳусниддин аканинг оиласи мисолида яна бир бор амин бўлдик.

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**«Postda» мухбири.**

*Навоий вилояти*

*Соҳамиз маликалари*

# МАҚСАДИНИ МАЁҚ БИЛГАН АЁЛ

**Хоразм вилоятининг Қўшкўпир туманида туғилган Дилноза ёшликдаги орзу-мақсадига эришиш учун астойдил ўқиди. Албатта интилишлари бесамар кетмади. Мактабни тугатгач, ИИВ Академиясида таҳсил олди. Дилноза Боғибекова ички ишлар органларидаги дастлабки хизмат фаолиятини Урганч темирйўл бекатидаги тармоқ ИИБнинг Тергов бўлинмасида терговчи лавозимида бошлади.**



Соҳада хизмат қилиш қанчалик қийин бўлмасин, барчасини сабр-матонат билан енгиб ўтишга интилди. Устоз-мураббийларидан касб сирларини кунт билан ўрганиб, малакасини янада ошириб борди. Кўплаб ўқув ва амалий машғулотларда, кўрик-танловларда фаол иштирок этди. Энг муҳими, ўзига топширилган ҳар бир тергов ишини аниқ далилларга таянган ҳолда олиб борди ва холисона хулосалар чиқаришга ҳаракат қилди.

Дилноза Боғибекова саккиз йил ушбу жамоада самарали хизмат қилди ўзининг билими, интилиши, қўлга киритган ютуқлари билан бошқарма раҳбариятининг ишончини қозонган.

У вилоят Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бошқармаси ҳамда унинг худудий бўлимлари масъуллари билан ҳамкорликда маҳаллаларда, таълим муассасаларида, корхона ва ташкилотларда хотин-қизлар ўртасида жиноят ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш бўйича мунтазам тарғибот тадбирлари ўтказди. Бунда хотин-қизларнинг турмуш шароитини яхшилаш, оила даромадини ошириш орқали камбағалликни қисқартириш, уларнинг турмуш тарзи, ижтимоий аҳволи ҳамда муаммоларига алоҳида эътибор қаратиш билан бирга, хотин-қизларни турли тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилишга ҳаракат қилди.

– Зиммамизга юклатилган асосий вазифа ички ишлар органларида хизмат қилаётган хотин-қизларнинг жамиятдаги фаоллигини ошириш, мавқеини юксалтиришдан иборатдир, – дейди подполковник Дилноза Боғибекова. – Бунда асосий эътибор уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, интеллектуал салоҳиятини, ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш, саводхонлигини ошириш, хизмат ва яшаш шароитларини яхшилаш, муаммоларига ижобий ечим топиш, хизмат интизоми ва қонунчиликни мустаҳкамлашга алоҳида эътибор беряпмиз. Шунингдек, хотин-қизлар фаолиятига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг мазмун-моҳиятини шахсий таркибга етказиш, илмий изланиш ва тадқиқот ишларини олиб бораётган ходималарни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш масалалари ҳам доимий эътиборимизда. Хизмат интизомига қатъий риоя этаётган, ташаббускор, ижобий кўрсаткичлари юқори бўлган ходималаримизни муносиб тарзда рағбатлантириб, раҳбарлик лавозимларига тавсия қилиб боряпмиз.

Ижтимоий қўллаб-қувватлаш хизмат самарадорлигининг ошишида муҳим ўрин тутишини яхши англаган Д. Боғибекова ёрдамга муҳтож бўлган ходималарнинг манзилли рўйхатини шакллантириб, мавжуд муаммоларини ўрганиб чиқмоқда ва бошқарма раҳбариятининг бевосита кўмагида уларга амалий ёрдам беряпти. Шунингдек, фахрийлар ва кенг жамоатчиликни жалб қилган ҳолда, намунали оилалар ҳаётини ўрганиб, уларнинг ютуқларини кенг тарғиб қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратмоқда.

Ички ишлар органларида самарали хизмат қилаётган подполковник Дилноза Боғибекова устоз-мураббий сифатида ҳам ҳурмат-эътиборга сазовор бўлган. Шогирдлари – катта лейтенантлар Зубайда Ахмедова, Адолат Нурманова, Анапоша Қурбонова, Насиба Абдуллаева сингари кўплаб ёшлар айни кунда ғайрат-шижоатли ходималар сифатида эътироф этилган.

Ҳаётнинг довонларини енгиб ўтиб, оиладек муқаддас қўрғонга ўз меҳрингни бера олган инсонгина бахтли ҳаётга эришиш мумкин. Бу борада унинг турмуш ўртоғи Бахтиёр Мадраҳимов кўмакдош. Улар бир-бирига елкадош бўлиб, ҳаётнинг қувончу ташвишларини ҳамжиҳатликда баҳам кўради. Бахтиёр оилада фарзандлари Дияра ҳамда Динараларни комил инсон қилиб тарбиялашмоқда.

Дилнозанинг келгуси режалари, орзу-умидлари янада бисёр. Бундай аниқ мақсад, шубҳасиз, уни янги зафарлар, улкан муваффақиятлар сари етаклайди. Бунга ишончимиз комил.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Хоразм вилояти.*

*Мутахассис фикри*

# ШАХСНИНГ ИНДИВИДУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИНИ БАҲОЛАШНИНГ АСОСИЙ УСУЛИ



**Психодиагностика турли тестлар ёрдамида инсоннинг индивидуал хусусиятларини аниқлаш усулидир. Мазкур усул ёрдамида шахснинг характери, темпераменти етарлича ва ҳар томонлама баҳоланади, унинг ақлий ривожланишдаги оғишлар ўз вақтида аниқланади.**



Ҳар бир психодиагностик текширувнинг ўзига хос йўналиши бор. Шунинг учун тест синовларининг мақсадларига қараб, ҳар



бир ҳолатда тест ва техниканинг маълум блоки қўлланилади. ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаментида ҳам вазирлик раҳбариятининг тегишли кўрсатмасига асосан барча шахсий таркибни психодиагностик текширувдан ўтказиш ишлари изчиллик билан олиб борилмоқда. Бу эса ходимларнинг руҳий ҳолатидаги салбий ўзгаришларни барвақт аниқлаш ва уларга сифатли психологик ёрдам кўрсатиш имконини бермоқда.

Ушбу текширувлар натижасида яратилаётган психологик портретлар ходимлар билан ўтказилган психодиагностик текширувни батафсил акс эттиради. Олинган маълумотлар эса кейинчалик ходимлар билан мулоқот қилишда, уларнинг имкониятларини тўғри баҳолашда, хизмат вазифаларини белгилаб беришда, уларни лавозимга тайинлашда асосий воситалардан бири бўлиб хизмат қиляпти.

**Азиз САХАТОВ,**
**майор.**

*Ветеранам почет*

# «ВОСХИЩАЮСЬ ЛЮДЬМИ В ФОРМЕ»

**Перед нами несколько фотографий майора в отставке Зумрад Курбоновой. На одной из них – очаровательная восемнадцатилетняя девушка в форме сотрудницы ОВД. В то время З. Курбонова являлась инспектором ДПС УБДД УВД Бухарской области. На другом фото героиня очерка с коллегами во время проведения специального мероприятия. А вот эта фотография излучает материнскую любовь – Зумрад Курбонова с сыном Алибеком.**

– В нашей школе проходило профилактическое мероприятие с участием представителей ОВД. Меня вдохновил энтузиазм и решительность женщины-сотрудницы, рассказавшей о службе, о том, какую работу они проводят по предупреждению и пресечению противоправных деяний, укреплению в обществе правопорядка. В тот момент я и загорелась идеей связать жизнь с органами внутренних дел, – говорит наша собеседница. – О своем намерении сказала отцу. Он сначала удивился, долго расспрашивал, почему пришла к такому решению. Я ответила, что восхищаюсь людьми в форме, хочу быть такими как они. Отец хорошо знал мой характер, предупредил, что быть сотрудником органов внутренних дел по плечу не всем, профессия эта требует максимальной самоотдачи...

С согласия родителей девушка поступила в автодорожный техникум на заочное отделение, начала службу инспектором УБДД. Позже З. Курбонова окончила Бухарский государственный университет. Руководство, видя целеустремленность молодой сотрудницы, назначило ее старшим инспектором УППСиООП УВД области.

В какой бы должности ни работала героиня очерка, она всегда



проявляла высокую ответственность, принципиальность, чем заслужила уважение коллег и учеников. З. Курбонова эффективно возглавляла отдел по делам несовершеннолетних ОВД города Бухары, согласно приказу начальника областного УВД служила инспектором «женского крыла» антитеррористического отдела. В 2010 году была назначена начальником Центра социально-правовой помощи несовершеннолетним УПП областного УВД. Прослужив на этой должности шесть лет, она вышла на заслуженный отдых. Необходимо отметить, что во время службы она руководила женсоветом УВД, осуществляла большую наставническую деятельность.

– Не представляю своих достижений в профессии без поддержки супруга, Эркина ака, который всегда понимал сложности нашей работы. За это я ему благодарна, – подчеркивает Зумрад опа. – Огромна его заслуга и в воспитании нашего сына, Алибека, который сегодня обучается в Самаркандском институте экономики и сервиса.

**Мирзокул АХАДОВ,**
**корреспондент «Postda».**
*Бухарская область.*

■ Джизакская область

# НАЧАЛ ФУНКЦИОНИРОВАТЬ НОВЫЙ ЦЕНТР




**Во исполнение постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по преобразованию органов внутренних дел в народную профессиональную структуру и ориентированию их работы на более тесное взаимодействие с населением» в Джизакском академическом лицее МВД начал функционировать Центр приема кандидатов на службу в органы внутренних дел.**





В церемонии открытия Центра приняли участие руководители и ответственные сотрудники УВД Джизакской области, ветераны, представители общественности, а также молодые люди, принявшие решение встать в ряды органов правопорядка.

Была перерезана символическая лента. Участники мероприятия ознакомились с условиями, созданными в Центре.

Отметим, что здесь одновременно могут проходить тестовые испытания 20 кандидатов. Родители имеют возможность наблюдать за ходом тестирования в режиме онлайн.

Центр оснащен современным оборудованием, наглядными пособиями. Здесь организован «Уголок духовности», размещены стенды, рассказывающие о достижениях сотрудников органов внутренних дел.

– На базе Центра будет осуществляться также деятельность по оформлению документов кандидатов, желающих обучаться в образовательных учреждениях системы правоохранительных органов и обороны, проверке их знаний, – говорит начальник отдела физической и боевой подготовки Службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД области подполковник Шерзод Хикматуллаев. – Имеются условия для проведения занятий и тренингов, направленных на переподготовку и повышение квалификации сотрудников. Для новобранцев планируем проводить недельные сборы перед отправкой их на курсы первоначальной подготовки. Занятия по физической и боевой подготовке будут проходить на базе спортивных сооружений и тренировочных площадок лицея. Центр располагает общежитием на 45 мест.

Еще одна новость: к августу текущего года в Центре начнет функционировать электронный тир.

Отметим, что в день начала деятельности Центра здесь прошли итоговые тестовые испытания для кандидатов, желающих обучаться в Джизакском академическом лицее МВД.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**корреспондент «Postda».**

*Одам савдосига қаршимиз!*

# КЎЗА СИНГАН КУН

**Шаҳноза ва Маъмура Мусаева (исм-шарифлар ўзгартирилди) ларни кўрган киши туппа-тузук аёллар экан, дея бирламчи баҳо бериши мумкин. Лекин сиртига ўта меҳрибон инсон ниқобини кийиб олган бу аёллар ўз манфаати йўлида ҳеч нарсадан тап тортмаслиги маълум бўлди.**



Меҳнатобод туманида туғилган Шаҳноза опаси Маъмура билан бирга Янгиер шаҳрида истиқомат қилади. Улар енгил турмуш тарзини касб қилиб олишган. Ресторану кафелар, шаҳарлараро саёҳатларни севишади. Лекин умр ўтган сари гўзаллик уларни тарк эта бошлади. Бозорлари юришмай қолди. Энди давраларга уларни таклиф қилмай қўйишди. Лекин устомон опа-сингиллар тирикчиликнинг бошқа йўлини топишди. Энди улар пулга муҳтож қизларни алдаб, чув туширишга ўтишди. Содда қизлар уларнинг тузоғига тушишгач, танасини сотишга мажбурланарди. Шу тариқа, бир қанча қизларнинг ҳаёти, номуси булғанди. Опа-сингилларнинг эса виждони заррача қийналмасди. Жарақ-жарақ пуллар уларнинг қалб кўзини кўр қилиб қўйганди. Лекин «кўза синадиган кун» ҳам келди. Улар яна бир содда қизни пуллашаётганида қўлга олинди...

Йигирма ёшли Рухшона Шокирова кунлик ишларга чиқиб юрарди. Қиш келгач, мавсумий ишлар ҳам юришмай қолди. Ноилож Янгиер шаҳрига иш излаб келди. Гўзаллик салонида ишловчи «Дили» исмли эски танишига учраб, ижарага уй топишда ёрдам сўради. Дили унга Шаҳноза Мусаеванинг манзили ва телефон рақамини берди. Шаҳноза чангалига янги ўлжа келиб тушаётганидан хурсанд бўлиб, Рухшонани ўз уйига киритди. Унга сохта меҳрибончиликлар кўрсатишни бошлади. Опаси Маъмура билан шаҳардаги кийим бозорига олиб бориб, янги кийим-кечак олиб берди.

Рухшона буларнинг барчаси уни мижозларга чиройли кўрсатиш учун кераклигини билмасди. Ҳаммаси кейин бошланди. Уйга қамаб олинган Рухшонани опа-сингил зуғумга олишди. Унга харажат қилингани, кийим-кечак олиб берилгани, натижада 200 АҚШ доллари миқдорида қарз бўлиб қолганини пеш қилишди. Эвазига танасини сотиш орқали пул ишлаб беришни талаб қилишди. Рухшона кўнмади. Лекин илонни ёғини ялаган опа-сингил тазйиқни кучайтиришди. Агар фоҳишалик билан шуғулланмаса, Рухшонанинг маҳалласига бориб, уни шарманда қилишлари, фоҳишалик билан шуғулланаяпти, деб гап чиқаришларини айтишди. Руҳий босим остида қолган Рухшона опа-сингилнинг талабига кўнишга мажбур бўлди...

Бу орада Сирдарё вилояти ИИБ ЖҚБга Янгиер шаҳрида одам савдоси билан шуғулланиш ҳолати юзасидан тезкор маълумот келиб тушди. Жиноятни фош этиш, одамфурушлик билан шуғулланаётганларни қўлга олиш бўйича режа ишлаб чиқилди. Опа-сингил Гулистон шаҳрига Рухшонани навбатдаги мижозга пуллаш учун келишганди, уларнинг ёнига шартли «мижоз» юборилди. У танфурушлар билан мулоқотга киришиб, мақсадини айтди. Шаҳноза телефон рақамини берди. Орадан икки кун ўтгач, шартли мижоз Рухшонани бир миллион сўм пул эвазига Зоминга олиб кетишига келишилди. Гулистон шаҳрида ўтказилган тезкор тадбирда опа-сингиллар мижоздан 990 минг сўм пулни олаётган вақтда ашёвий далиллар билан қўлга олинди...

Суд ҳукми ўқилди. Лекин топталган номус, барбод бўлган ҳаёт, руҳан синишнинг ўрнини тўлдириб бўлармикан?

**Дилмурод ЖУМАЕВ,**
**подполковник.**
*Сирдарё вилояти.*

*«Қорадори – 2023»*

# ИЛЛАТНИ БИРГАЛИКДА ЕНГАМИЗ!

**Бугунги кунда дунё ҳамжамиятини ташвишга солиб келаётган муаммолардан бири гиёҳвандликдир. Шу боис, унинг олдини олиш ва қарши курашиш йўлида давлатимиз томонидан улкан саъй-ҳаракатлар амалга оширилмоқда.**

Ҳар йили мамлакатимизда икки босқичли «Қорадори» профилактик назорат-рейд тадбирларининг ўтказиб келиниши ҳам ушбу фикримизнинг яққол тасдиғидир. Айни пайтда юртимизнинг барча ҳудудларида жорий йилнинг 1 майидан 30 июнига қадар «Қорадори – 2023» тадбири уюшқоқлик билан ўтказилмоқда.

Хусусан, Тошкент вилоятида ҳам гиёҳвандликка қарши курашиш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш мақсадида ҳудуд ИИББ томонидан қатор ишлар ташкил этилмоқда. Мазкур тадбирларга бош бошқарма куч ва воситалари, тезкор ходимлар ҳамда вертолёт жалб қилиниб, вилоят ҳудудидаги дала майдонлари, томорқалар ва қаровсиз ерларда ноқонуний равишда гиёҳвандлик воситаларини етиштириш ҳолатлари юзасидан кенг кўламли қидирув-суриштирув ишлари олиб борилмоқда.










Жумладан, соҳа ходимлари томонидан Зангиота туманида олиб борилган тадбирлар давомида 25 туп «кўкнор» гиёҳвандлик ўсимлиги етиштирилаётгани аниқланиб, уларнинг барчаси далилий ашё сифатида олиб қўйилди. Шунингдек, Янгийўл шаҳри ва туманида ўтказилган тезкор тадбирлар натижасида 29 туп «каннабис» ва 71 туп «кўкнор» ўсимлиги топилди.

Шундай қилиб, мазкур заҳри қотилни ўзига яқин дўст билиб, уни парваришлаётган барча гиёҳфурушлар қўлга олиниб, эндиликда улар билан терговга қадар суриштирув ишлари олиб борилмоқда.

Бу каби тадбирлар вилоятнинг барча шаҳар ва туманларида давом этмоқда.

**Михли САФАРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Тошкент вилояти.*

*Siz kutgan uchrashuv*

# Og'abek SOBIROV: ULUG' USTOZLARNING YO'LIDAMIZ



**San'atsevar xalqimiz «Turkiston» san'at saroyining yozgi amfiteatrida namoyish etilgan «Lazgi» ashula va raqs ansamblining konsert dasturini haqiqiy ma'noda qo'shiq bayrami sifatida qarshiladi. Bu ko'p ming sonli muxlislarning davomli qarsaklari-yu e'tirofida aks etdi.**

**Bugungi «Siz kutgan uchrashuv» sahifasi mehmoni O'zbekiston xalq artisti, «Do'stlik» ordeni sohibi, «Lazgi» ansambli badiiy rahbari Og'abek Sobirov bilan suhbatimizni ushbu konsert taassurotlaridan boshladik.**

– Haqiqatan ham, san'atsevar xalqimiz bor. Shu bois biz san'atkorlar ham ular uchun ijod qilib, muxlislarimizga har gal yangi qo'shiq taqdim qilganimizda birgalashib xursand bo'lamiz. Chunki san'atkor muxlislari bor ekan, san'at yo'lida davom etadi. Ta'bir joiz bo'lsa, uning qanoti muxlislaridir. Sahnaga chiqqanimizda, ko'zlari yonib, o'zgacha bir mehr, e'tibor bilan qarshilaydigan muxlislarimizning boriga shukur qilaman.

Endi konsert dasturimizga kelsak, bu – har yilgi an'ana. Ammo «Lazgi» ashula va raqs ansamblining bu yilgi konserti har yilgidan-da fayzliroq o'tdi. Boisi, ijodiy jamoamiz bilan repertuarimizni rang-barang tayyorlashga harakat qildik. Dastur davomida va keyin muxlislarimizning ko'tarinki kayfiyatiga qarab, o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishdik, deb qoniqish hosil qildik.

**– San'atning asosiy vazifasi nima ekanligi hammamizga ma'lum. Sizningcha, bugungi shiddatkor zamonda bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda aks etyapti?**

– Qo'shiqchilikning ham o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari bor, albatta. Masalan, hozirgi vaqtda turli janrlarda kuylaydigan xonandalar ko'payib ketdi. Bu yaxshi, biroq saviya masalasini biroz o'ylab ko'rish kerak, nazarimda. Sabablarini tahlil etadigan bo'lsak, ko'pincha qo'shiq matni ham, musiqasi ham ijrochiga tegishli bo'lib chiqadi. Natijada saviyasiz va sayoz qo'shiq yaralgan bo'ladi. Men ayrim ijodkorlardagi bunday yuzakilikni yoqlamayman, chunki qancha-qancha qalami o'tkir, har bir misrasi ma'nolar mahzani bo'lgan shoirlarimiz, yaratgan kuyining har nolasi ko'ngilni allalaydigan bastakorlarimiz bor. Xalqimizda «Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin», degan maqol bejiz aytilmagan.

Shu o'rinda yana bir achchiq haqiqatni ta'kidlagan bo'lardim. Oxirgi vaqtlarda milliy mentalitetimizga, o'zbekchiligimizga xos bo'lmagan qo'shiqlar, kliplar yaratilmoqda. Yaqinda oilaviy davrada eshitishga odam istihola qiladigan darajadagi qo'shiqni eshitdim. Afsuski, ularga yengil-yelpi kliplar ham tasvirga olinmoqda. Menimcha, bunday yuzaki qarashlarga chek qo'yadigan payt keldi. Bu taxlit qo'shtirnoq ichidagi qo'shiqlar muallifi bo'lgan ukalarimizga aytadigan birinchi maslahatim, o'ziga yaxshi bir ustoz tanlab, uning etagidan mahkam tutishsin.

**– Xorazm qo'shiqchilik san'ati, xususan, «Lazgi» ansambli milliy san'atimizning uzviy halqasidir. Hozirda ushbu ansamblda ustoz san'atkorlar yaratgan mahorat maktabi an'analarini davom ettirish borasida qanday amaliy ishlar qilinmoqda?**

– «Lazgi» ansambliga 1957-yilda O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalq artisti Komiljon Otaniyozov asos solganlar. Keyinchalik O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova, O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalq artisti, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibi, ustozimiz Ortiq Otajonov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Ravshanoy Sharipova, Rahmatjon Qurbonovlar ham ansambl dovrug'ini dunyoga tanitishda o'z hissalarini qo'shishgan. Ular Xorazm milliy maqomi, qolaversa, folklor, xalfachilik, baxshichilik yo'nalishlari, yallani rivojlantirib, aytishuv, lapar kabi jozibador kuy-qo'shiqlar bilan ansambl repertuarini yanada boyitgan. Bugun biz ustozlardan meros mahorat maktabi an'analarini munosib tarzda davom ettirishni zimmamizga olganmiz. Va buni yosh yigit-qizlarga zamonaviy ko'rinishda qo'limizdan kelganicha o'rgatyapmiz. Chunki ulug' ustozlarning yo'lidamiz.

**– Sahnaga chiqqan san'atkor borki, zimmasiga katta mas'uliyat oladi. Bugun san'at olamiga kirib kelayotgan yoshlar bu mas'uliyatni qanchalik his etishmoqda, deb o'ylaysiz?**

– San'at – o'ta nozik didni talab qiladigan soha. Masalan, san'atkor qo'shiq kuylagani bilan hech nimaga erisha olmaydi. Shu bois, sohaga qadam qo'ygan har bir ijrochi o'ziga yuqtirilgan qobiliyatni yana bir qator muhim jihatlar bilan to'ldirishga alohida ahamiyat qaratishi kerak. Aytaylik, sahnada ham va odamlar bilan muloqotda ham san'atkorga xos bo'lgan madaniyatni namoyon qila olishi, qolaversa, hamisha ziyrak bo'lishi lozim. U kiyinishdan tortib, yurish-turishigacha e'tibor qilishi zarur. Bugungi yoshlarimiz orasida shundaylari borligi meni quvontiradi. Ularni ko'rib juda xursand bo'laman. Bundaylar o'zimning shogirdlarim ichida ham bor. Quvonarlisi, ular ustozlarining so'zlarini qulog'iga olib, o'ta tirishqoqlik, harakatchanlik bilan katta sahnalarda konsertlar berishyapti. Bunday iqtidorli yosh san'atkorlarning ijodini kuzatib, bahri dilim ochiladi, baraka topishsin! Ularning safi yanada kengayishini xohlardim.

**– Siz qo'shiqlari xalq qalbidan joy olgan san'atkorsiz. Ayting-chi, umrini san'atga baxshida etgan ijodkorning bevosita rahbarlik faoliyati bilan shug'ullanishini qanday baholaysiz?**

– Umuman olganda, ijodkor, aniqrog'i, san'atkor uchun rahbarlik noqulaylik tug'dirishi, tabiiy. Sababi bir tomonda o'zi, ikkinchisida ansamblning ijodi. To'g'ri, bundan qiynalgan vaqtlarim ham bo'lgan. Lekin men o'ylaymanki, har bir kasb egasi, xususan, san'atkor kasbini sevib, ko'nglidagi maqsadlari sari qat'iy ishonch bilan chin dildan intilsa, hamma narsaga ulguradi.

Men san'atkorman, shu bilan bir qatorda ustozlardan o'tib kelayotgan an'analarni davom ettirishga o'zimni mas'ul deb bilaman. Va betakror san'atimizni kelajak avlodga chiroyli tarzda meros qilib yetkazish uchun kerak bo'lsa, o'zimning ijodimni bir chekkaga surib qo'yib, ansamblga e'tibor qarataman. Chunki ayni paytda ansamblda ellikdan ziyod yosh ijrochi yigit-qizlar, raqqosalar, raqqoslar bor. Ular ertangi kunimiz. Shu bois yoshlarga qo'limdan kelgancha ustozlardan o'rganganlarim, bor bilimim, mahoratimni o'rgataman. Bu ish menga hech qachon ikkinchi darajali bo'lib qolmagan va qolmaydi ham.

**– Suhbatimiz so'ngida gazetxonlarimizga aytar so'zlaringiz va tilaklaringiz.**

– Muxlislarimiz qalbi, chehrasi hamisha yaxshi kunlarning xush kayfiyatidan yorishsin. Biz ham o'zimizning yangi qo'shiqlarimiz, ijodimiz bilan ularning qalblariga iliqlik bag'ishlay olsak, o'zimizni baxtli hisoblaymiz. Kirib kelayotgan ulug' ayyomlar quvonchli onlarga boy bo'lsin.

**«Postda» muxbiri**
**Gulnoza TURG'UNBOYEVA**
**suhbatlashdi.**

*Милосердие*

# БЛАГОРОДНЫЙ ПОСТУПОК

**Вопрос отношения человека к братьям нашим меньшим, а именно к животным, ставился во главу угла во все времена. Конечно, истинная доброта по отношению к собакам и кошкам проявляется не в умилении и угощении чем-нибудь съестным, а в реальной помощи животному, оказавшемуся на улице по причине человеческой черствости.**





Многие знают, насколько трудна и хлопотна работа инспектора профилактики правонарушений. Как правило, у блюстителя правопорядка, на участке ответственности которого проживают подчас тысячи махаллинцев, не найдется свободной минутки для того, чтобы просто присесть и отдышаться. Он постоянно в движении: помимо осуществления контроля над криминогенной ситуацией на вверенном участке, инспектор озабочен решением множества других насущных вопросов. «До собачек и кошек ли ему, когда столько проблем?», – подумают некоторые...

Поздним вечером в пункт ОВД, расположенный в махалле Катта Куйлюк Яшнабадского района города Ташкента, где несет службу старший инспектор профилактики майор Алишер Мирзаходжаев, была доставлена собака, которая находилась не в самом лучшем виде. Было заметно, что у животного проблемы со здоровьем, ему трудно стоять, пес буквально валится на землю. Глядя на породистую собаку, очевидно выброшенную хозяевами на улицу «за ненадобностью», у инспектора, что называется, защемило в сердце.

– В махалле несу службу уже более 10 лет, – говорит А. Мирзаходжаев. – Хочу отметить, что наши жители небезучастны к судьбам бездомных собак и кошек. Они кормят их, оберегают, как могут облегчают им жизнь. А недавно мне сообщили, что неподалеку бродит одинокая собака, заметно, что раньше она жила в чьем-то доме. Когда я увидел в каком плачевном состоянии находится несчастное животное, решил во что бы то ни стало помочь ему.

Была уже ночь, когда майор А. Мирзаходжаев связался по телефону с волонтерами приюта «Хаёт», и до тех пор, пока они не приехали, собака находилась на территории пункта под его присмотром. Сегодня собака в хороших руках, и все это благодаря сотруднику органов внутренних дел, у которого доброе сердце и милосердная душа.

«Благодарна Алишеру Икрамовичу за человечность! Вот он – настоящий страж порядка! Спасибо огромное», – написала в благодарственном письме Ирода Маткаримова, основатель первого официального приюта для бездомных животных в Узбекистане «Хаёт».

Вот так благополучно закончилась эта история. Каждому из нас следует сделать выводы о том, как относиться к животным, и в первую очередь к брошенным равнодушными хозяевами. Поступок же инспектора профилактики пусть будет в этом примером!

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**

*27 июня – День работников печати и СМИ*

# В ИНФОРМАЦИОННОМ ПОЛЕ

**В ежедневном графике работы начальника Информационной службы УВД Сырдарьинской области майора Достона Шамсиддинова организация и осуществление видеосъемки, монтаж, редактирование материалов, подготовка их к публикации и выпуску.**



Достон родился в 1990 году в Акалтынском районе Сырдарьинской области. Получив среднее специальное образование, в 2008 году поступил в Ташкентское высшее военно-техническое училище МВД Республики Узбекистан. В годы обучения педагоги и однокурсники всегда отмечали его широкий кругозор, целеустремленность, чувство ответственности. После окончания обучения руководством училища было принято решение оставить его в образовательном учреждении. Работая в училище, Д. Шамсиддинов вносил достойный вклад в дело подготовки специалистов. Однако желание работать, как говорится, на практике, не покидало его. Его инициатива была поддержана, он был направлен на службу старшим инспектором ОПП ОВД Сардобинского района. Благодаря знаниям, умению налаживать контакт с населением, добивался успехов в укреплении правопорядка на вверенной территории.

В 2018 году Достон Шамсиддинов был назначен на ответственную должность – начальником Информационной службы УВД Сырдарьинской области. На него были возложены новые задачи, связанные с освещением деятельности подразделений, усилением разъяснительной работы среди соотечественников, повышением правовой культуры граждан, укреплением связи с общественностью. Поскольку в современных условиях одним из действенных средств доведения до населения информации является интернет, было принято решение сосредоточиться именно в данном направлении. На сегодняшний день в интернете функционирует официальный сайт УВД, созданы страницы и каналы в популярных мессенджерах и социальных сетях, в том числе в Telegram, Facebook. В короткие сроки достигнуто увеличение здесь информационного потока, объема видео- и фотоматериалов о деятельности районных и городских ОВД, отраслевых служб. Материалы, подготовленные Информационной службой УВД Сырдарьинской области, тиражируются СМИ.

Деятельность Информационной службы УВД неоднократно признавалась лучшей по итогам опросов, проводимых Управлением информации и массовых коммуникаций Сырдарьинской области. И в этом немалая заслуга майора Достона Шамсиддинова.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,**
**корреспондент «Postda».**
*Сырдарьинская область.*

Mulohaza

# TARTIB KIMGA YOQMAYDI?

**Xizmat taqozosi bilan yo‘l-transport hodisasi ro‘y bergan joydan yozib olingan videotasvirlarni ko‘rishimga to‘g‘ri keldi. Yo‘lni kesib o‘tayotgan bolani yuqori tezlikda kelayotgan avtomashina urib yuborgan, boshqasi esa bosib o‘tgandi. Bolakayning tanasi achinarli ahvolda, yuzi tanib bo‘lmas darajada.**

Yanada achinarlisi, esini yo‘qotayozgan ona bir necha daqiqalar ilgari tirik bo‘lgan nuridiydasining jonsiz gavdasi tomon talpinar, tinimsiz uvvos solib yig‘lardi. Ichki ishlar organlari xodimlari esa voqea joyi o‘rganilishi kerakligini tushuntirishga, uni to‘xtatishga urinardi.

Bechora ayol har bir ona singari, farzandining uzoq hayot kechirishiga ishongani, uning baxtli kelajagi bilan bog‘liq ulkan orzular qurgani aniq. Lekin yo‘lning belgilanmagan joyidan kesib o‘tgani bolaning bevaqt o‘limiga, uning yaqinlari esa iztirob iskanjasida qolishiga sabab bo‘ldi.

Shu singari ayanchli hodisalardan hamma o‘zicha xulosa chiqaradi. Kimdir haydovchi yo piyodani ayblaydi, ammo ko‘pchilik barchasiga qismatni, peshonadagi yoziqni balogardon qiladi. Unday bo‘lsa, nega rivojlangan, xususan, ko‘chalari qoidabuzarliklarni aniqlovchi qurilmalarga to‘la mamlakatlarda yo‘l-transport hodisalari kam kuzatiladigan hodisalar sirasiga kiradi? Demoqchi bo‘lganim, aksariyatimizda yo‘l harakati xavfsizligiga oid madaniyat yetishmaydi.

Bundan bir oy ilgari Jizzax shahrining Sharof Rashidov ko‘chasida piyodalar yo‘lni kesib o‘tishi uchun 2 ta yerosti yo‘lagi qurildi. Lekin ba’zilar o‘z salomatligi va hayotini xavf ostiga qo‘yib, yo‘lning belgilanmagan joyidan kesib o‘tishda davom etmoqda. Ana shundaylardan biriga yoshi oltmishlarni qoralagan erkak tanbeh berganligini aytib qoldi. Qoidabuzar yigit pashsha qo‘rigandek qo‘l silkib, «Shoshib turgandim», dedi...

Taksida ketar ekanman, haydovchining yoshlar tezlikka zo‘r berayotgani, yo‘l harakati ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro hurmat yo‘qligi, kuzatuv kameralari ko‘payib ketayotganligiga oid iddaolari qulog‘imga chalindi. «Agar hech kim qoidalarga amal qilmayotgan bo‘lsa, kuzatuv kameralari ko‘paygani yaxshi emasmi?», dedim. O‘z navbatida, norozi qiyofaga kirgan haydovchidan: «Hammamiz ham xom sut emgan odammiz, bilib-bilmay xato qilsak, topganimizni davlatga topshirib yuboraveramizmi?», degan javobni eshitdim.

Aslida o‘zimiz aybdormiz, tartib va me’yorlarga amal qilmaymiz. Qoidabuzarlikni sodir etib bo‘lgach esa, bor kuchimizni vaziyatdan «quruq» chiqishga safarbar etamiz. Aksincha bo‘lganida, mast haydovchi yo‘l-transport hodisasi sodir etgani yoki reydlarda ushlangani haqidagi xabarlarni eshitmasdik. Yo‘lovchi olish uchun kutilmaganda yo‘lingizni kesib o‘tadigan kirakashlar, to‘xtash mumkin bo‘lmagan joyga avtoulovini qoldirib ketadiganlar yoki temir toychog‘ini piyodalar yo‘lagidan harakatlantiradigan surbetlar, malakasi yetarli bo‘lmagan «xom»lardan nolib yurmasdik.

E’tiborlisi, ko‘ngilsiz hodisalarga oid ma’lumotlar to‘xtovsiz tarqatilayotganiga qaramasdan, yo‘l-transport hodisalari soni kamaymayapti. Bu boradagi vaziyatga nosoz yo‘llar, nazorat qurilmalarining kamligi, haydovchilarni tayyorlash va o‘quv muassasalarida yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish bilan bog‘liq muammolar o‘z ta’sirini o‘tkazayotgani ham bor gap.



**Shu o‘rinda mavzuga oid ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tsak: joriy yilning o‘tgan davrida Jizzax viloyatida 109 ta yo‘l-transport hodisasi qayd etilgan: 49 holatda transport vositalari o‘zaro to‘qnashgan, 41 holatda piyodalar, 4 holatda velosipedchi urib yuborilgan. 10 holatda transport vositalari ag‘darilgan, 9 holatda to‘siqlarga urilgan.**

**Eng ayanchlisi, 89 kishi turli darajada tan jarohati olib, 35 kishi vafot etgan. Ya’ni, kimdir qisman majruh bo‘lib qolgan, boshqa birov umrining qolgan qismini nogironlik aravasiga mixlangan holda o‘tkazadi. Ayrimlar esa ota-onasi, jigarlarini qayg‘uga ko‘mib, yo‘qlikka ketgan. Shuning uchun yo‘llarda videokuzatuv qurilmalari ko‘payib ketayotganligidan yozg‘irayotganlar fikriga qo‘shilmayman.**

O‘ylab ko‘rilsa, nazoratning kuchayishi qoidabuzarlargagina ma’qul kelmaydi. Kimdir o‘zini boshqalardan ustun bilgani uchun yo mansabdor tanishiga ishonib, qoidalarni buzaversa, to‘qnashuvlar yana sodir bo‘laveradi, odamlar jabr ko‘raveradi. Aksincha, hamma madaniyatli bo‘lib, yo‘l harakati qoidalariga birdek rioya qilsa, bundan faqat jamiyat yutadi, yo‘l-transport hodisalari ro‘y bermaydi, asabingiz buzilmaydi. Agarda jarimalar kimnidir nojo‘ya xatti-harakatlardan tiyishga, pirovardida esa insonning joni va salomatligini asrashga xizmat qilayotgan bo‘lsa, demak, hammasi to‘g‘ri.

**Alijon ABDUSATTOROV,**
**«Postda» muxbiri.**

# NATIJASIZ MANZILLAR

**Aksariyat kulfatlar, e’tiborsizlik tufayli sodir bo‘ladi. Deylik, parvarishlayotgan gulingiz vaqtida sug‘orilmasa, bevaqt xazon bo‘ladi. Mevali daraxtga shakl-u shamoyil berilmasa, shox-shabbalari har tomonga tarvaqaylab ketadi. Lazzatli taom pishirayotganingizda bir daqiqa e’tiborsiz qoldirsangiz, kuyib tagiga olishi mumkin. Demak, atrofimizdagi barcha voqeliklarning o‘z yo‘lida davom etishi, hayotimiz yaxshi tomonga o‘zgarishi uchun ham zimmamizda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan vazifalarimiz bor. Ana shu vazifalarimizning barchasi farzandlarimizga yaxshi tarbiya berishdan boshlanadi.**

– Maktabda ingliz tilidan saboq beraman, – deydi ismini ochiqlashni xohlamagan suhbatdoshim. – Darsga katta tayyorgarlik bilan kelaman, o‘z ustimda ishlayman. Lekin sinfdagi 35 nafar o‘quvchining yarmidan ko‘pining o‘qishga qiziqishi sust. Telefon o‘ynashadi, partaga boshini qo‘yib uxlashadi. Tartibga chaqirsangiz, ustingizdan kulishadi. 45 daqiqa vaqt sinfni jim qilishga ketmasin va yana asabimni asrash uchun ham bezorilarning ba’zan darsdan chiqib ketishiga ruxsat beraman. Yoki bema’ni qiliqlariga ahamiyat bermay, mashg‘ulotni davom ettiraman. Ayrim hamkasblarimiz bolalarning beboshliklari bois hatto darsdan yig‘lab ham chiqishadi. Yana o‘quvchilar orasida anonim so‘rovnoma o‘tkazishsa, hayratim oshadi. Baholovchilar orasida tarbiyasiz, alifni kaltak deya olmaydigan bolalar ham borligi alam qiladi.

Afsuski, o‘qituvchi haq...

Maktab davrida zo‘rg‘a «uch» bahoga o‘zlashtirgan qiz pedagogika yo‘nalishiga superkontrakt asosida o‘qishga kirdi. Amal-taqal qilib bitirib, ishga joylashdi. Bilimsiz qiz mana endi bir aylanib, «ustoz»lik maqomiga erishdi.

Bunga ham mayli, deyish mumkindir, lekin tibbiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida bu kabi holat bo‘lishi judayam yomon. Afsuski, bu sohada ham o‘sha holat.

Mahalladoshimiz Qirg‘izistondagi tibbiyot yo‘nalishida oliy o‘quv yurtiga qabul qilinib, respublikamizdagi tibbiyot akademiyasiga o‘qishini ko‘chirdi.

– Imtihonlarni topshirishi uchun qancha-qancha mablag‘ ketayotgani haqida onasi yozg‘irib qoldi. «Bola o‘qitish oson emas ekan, uydagi chorvaning hammasi bolamning o‘qishiga ketdi, – deydi onasi. – Yaxshi mutaxassis shifokorga shogirdlikka ham berdim, darsdan keyin amaliyot o‘tayapti. Hech bo‘lmaganda, ko‘zi bilan ko‘rib o‘rganib olar...

Farzandining hayotda yaxshi yo‘l topib ketishiga ishonch bildirayotgan onani ayblay olmaysiz, lekin nazariya bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmagan shifokor faqat amaliyotning o‘zi bilan biror natijaga erisha olishi mumkinmi? Ayniqsa, iqlim o‘zgarishlari odamlarda turli kasalliklar xavfini orttirayotgan bir paytda tibbiyot sohasiga bilimi haminqadar bo‘lgan mutaxassisning kelishi jamiyat uchun katta fojia emasmi?

Ta’lim sohasidagi islohotlar ko‘lami kengayib borayotgani, o‘quvchilarning bilim olishi uchun shart-sharoitlar yaratilayotgani haqiqat, lekin bu imkoniyatlar kim uchun, to‘qlikka sho‘xlik qilayotgan, imkoniyatlar qadriga yetmayotgan ayrim yoshlarimiz uchunmi? Ayniqsa, oliy o‘quv yurtlariga eng baland to‘lovlarni to‘lab, o‘qish mumkin bo‘layotgan bir paytda har qancha chiqishlar, jon kuydirishlar ham foydasi yo‘qqa o‘xshab tuyulaveradi.

Ta’lim-tarbiyaning tamal toshi maktab davrida qo‘yiladi, undan keyin bola eti qotib qolgan paytda pand-nasihat devorga gapirgan bilan baravar. Shuning uchun ota-onalar farzandi tarbiyasiga doimo e’tibor bilan qarab, bu borada ustozlar bilan hamkorlikni kuchaytirishlari shart.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**
**«Postda» muxbiri.**

*Фахрийлар сафда*

# «САМАРҚАНД»НИНГ ОҚСОҚОЛИ

*Ички ишлар органлари фахрийси Баҳриддин Исмоилов кўп йиллар Жиззах вилояти Ички ишлар бошқармасининг қўриқлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, миграция ва фуқароликни расмийлаштириш тизимларида фаолият юритган. Фахрийлар сафидан жой олгач, тадбиркорликка қўл урди, аникроғи, савдо дўкони ва мебель цехи очди.*



Қолаверса, ўзи истиқомат қиладиган Ғаллаорол туманининг «Самарқанд» маҳалла фуқаролар йиғини фаоллари сафида жамоат ишларида қатнаша бошлади. Шу боис 2016 йилда катта ишонч билан фуқаролар йиғини раислигига сайлашди. 2019 йилда эса «Жиззахсувтаъминоти» масъулияти чекланган жамияти Ғаллаорол тумани филиалига ишга кирди. Бу ташкилотда 2022 йилгача, яъни маҳалладошлари уни яна фуқаролар йиғини раислигига сайлагунларига қадар фаолият кўрсатди.

Қисқаси, Баҳриддин Исмоилов 7229 нафар аҳоли истиқомат қиладиган ҳудудда эҳтиёжмандларга кўмак бериш, электр, газ, сув таъминоти, кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштириш, инфратузилмаларни яхшилаш, бандликни таъминлаш йўлида тиним билмайди. Аҳоли билан мулоқот қилиш, ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш ҳамда мураккаб масалаларга ечим топишда ички ишлар органларида тўплаган тажрибаси қўл келмоқда.

Уйма-уй юриш асносида маҳалладаги ҳар бир хонадондаги муҳитни яхши билиб олган. «Самарқанд»даги аксар оилаларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи яхши. Шу боис асосий эътиборни эҳтиёжманд, ёлғиз яшовчи қариялар, боқувчисини йўқотган ва ногиронларга қаратади. Раис диққат марказида тутиши керак бўлганлар сирасига 11 нафар профилактик ҳисобга олинганлар, 4 нафар маъмурий назорат остидагилар, 6 нафар жазони очиқда ўтаётганлар ва 5 нафар ичкиликка ружу қўйганлар ҳам киради.

Баҳриддин Исмоилов мазкур шахсларнинг яшаш шароити, хулқи, ёши, жинси, қизиқиш ва имкониятларидан келиб чиқиб, профилактика инспектори, ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли ва ёшлар етакчиси билан уларни ишга жойлаш ёки бошқа йўналишда кўмак бериш чораларини кўради. Шунингдек, ҳудуддаги ўқув муассасалари, ташкилот ва корхоналарда ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот тадбирларини уюштиради.

– 2022 йил ва жорий йилнинг ўтган даврида ҳудудимизда бирорта ҳам жиноят содир бўлмади, – дейди мақоламиз қаҳрамони. – Бунга маҳалламиз фаолларининг ҳамкорликдаги фаолияти сабаб бўлаётир. Ўтган йили 77 кишига кредит, 3 кишига субсидия ажратилишида, уларнинг тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишида ёрдам бердик. Шунингдек, 2023 йилнинг биринчи ярмида 40 нафар маҳалладошимизга кредит берилгани туфайли 80 та иш ўрни яратилди. Бу эса «Аёллар дафтари»га киритилган 48 нафар хотин-қизнинг ишга жойлашишида омил бўлди.

Қолаверса, маҳалламизда спорт мусобақалари мунтазам ўтказилади. Жумладан, баскетбол жамоамиз 5 муҳим ташаббус доирасида ташкил этилган мусобақаларда вилоятда иккинчи ўринни эгаллаб, айни пайтда республика босқичига ҳозирлик кўряпти.

Шу ўринда айтиш жоиз, «Самарқанд» маҳалласида амалга оширилаётган эзгу ишларга ҳудуд тадбиркорлари муносиб ҳисса қўшмоқда. Улар кўмагида 15 нафар эҳтиёжманднинг Бухорога саёҳати ташкил этилди. Учинчи сектор ишчи гуруҳи маҳалладаги 15 та кўчанинг 7 тасига шағал ёткизилишида ёрдам берди. Бундан ташқари, янгидан барпо этилган 1 та кўчага ичимлик суви тармоғи тортилди.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**«Postda» мухбири.**
*Жиззах вилояти.*

# ЁРҚИН ХОТИРАЛАР

**Холида оилада уч фарзанднинг тўнғичи эди. Болалигини эслаunion, кўз ўнгида ички ишлар органи ходими формасидаги отасининг сиймоси намоён бўлади. Балки, шунинг учун бўлса керак, 1982 йилда Самарқанд давлат университетини тамомлаб, педагоглик дипломи билан ишлаш учун мактаб томон отланиб турганида бирдан нияти ўзгарганди.**



У ўшанда бир муддат ўйланиб қолди. Кейин ички ишлар органларида хизмат қилишга қарор қилди. Тизимнинг турли соҳавий хизматларида фаолият кўрсатди. Профилактика, жиноят қидирув, котибият ҳамда кадрлар хизмати шулар жумласидандир. Шунингдек, бир муддат Навоий вилояти ИИБ Ўқув марказида тингловчиларга сабоқ ҳам берди. Қайси лавозимга тайинланмасин, вазифасини сидқидилдан бажарди.

Ҳеч қачон кўнглида «Бундай вазифани эплай оламанми?» деган хавотир бўлмасди. Сабаби, доимо устозлари билмаганларини ўргатишар, тажрибали ҳамкасблари қўллаб-қувватлашарди.

Холида Мадаминова ҳуқуқшунос йигитга турмушга чиқди. Лекин турмуш ўртоғи Алек Зайнитдиновнинг умри қисқа экан. У кўп ўтмай вафот этди. Оғир жудолик лавҳамиз қаҳрамонининг иродасини, қаддини бука олмади. У бундан кейинги ҳаётини фақат ва фақат ўз касбига бағишлашга қарор қилди. Отаси истеъфодаги полковник Саидаҳмад Мадаминов каби обрўли ички ишлар ходими бўлишга, соҳада юксак натижаларни қўлга киритишга аҳд қилди.

Жиноят қидирув соҳасида хизмат қилган кезлари унинг саъй-ҳаракатлари билан бир қатор шов-шувга сабаб бўлган жиноятлар фош этилган эди. Қуйида улардан бири ҳақида ҳикоя қилмоқчимиз. Навоий шаҳри марказидаги йирик заргарлик дўконида катта миқдорда тилла тақинчоқлар ўғирланди. Сигнализация ишлаганидан сўнг воқеа жойига тергов-тезкор гуруҳи етиб келди. Лекин ўғри қисқа вақт ичида қочиб кетишга улгурган эди.

Бир неча йил аввал бирга ишлаган ҳамкасби Холидага яқиндагина Ленинградда тилла тақинчоқлар сотиб юрган шахс ҳақида гапириб берган эди. Қаҳрамонимиз «Заргарлик дўконида содир этилган ўғрилик ўша кишининг ишимасмикан?» деган шубҳага борди. Ўша фуқаро Навоий шаҳридан жиноят юз берган куни учиб кетган экан. Бу факт шубҳасини янаям кучайтирди. Гумон қилинувчини қўлга олиб, сўроқ қилишганида, қилмишига иқрор бўлди.

– Қайси жамоада ишламайин, хизматдошларим билан жуда аҳил-иноқ эдик. Ҳар гал маош олганимизда, пул йиғиб кимнингдир каттароқ муаммосини ҳал қилардик. Бир сафар ҳамкасбимизга янги уй сотиб олишига кўмаклашгандик. Энг эсимда қолгани, бир жамоадошимизнинг хотини эгизак фарзандларни дунёга келтирди. У туғуруқ пайтида кўп қон йўқотгани учун тоби қочиб қолди. Ўшанда ҳаммамиз навбатда туриб қон топширганмиз. Ҳамкасбларимнинг бирига опа, бошқасига сингил бўлиб, ҳамжиҳатликда эл-юрт осойишталиги йўлида хизмат қилган эдик, – дейди истеъфодаги подполковник Холида Мадаминова табассум билан ёрқин хотираларни ёдга олиб...

**Маҳлиё ХОЛОВА,**
**«Postda» мухбири.**
*Навоий вилояти.*

*Молодежь – наше будущее*

# ПЕРСПЕКТИВНЫЙ И ТАЛАНТЛИВЫЙ

**Международный туризм приобретает все большую популярность. Многие хотят побывать в странах, славящихся памятниками архитектуры и зодчества, совершить паломничество в святые места, отдохнуть на лоне природы, отведать блюда национальной кухни…**




Благо для этого созданы все условия, и Узбекистан не стал в этом вопросе исключением. В нашей стране туристическая отрасль приобрела, так сказать, второе дыхание, активно развивается. Конечно, во главу угла поставлена безопасность туристов, обеспечиваемая на самом высоком уровне сотрудниками туристической полиции, основной костяк которых составляет талантливая и перспективная молодежь…

Инспектор Управления обеспечения безопасного туризма УВД Самаркандской области лейтенант Азизжон Эргашев в органах внутренних дел служит второй год. После окончания Самаркандского государственного университета он решил круто изменить свою судьбу, сделав выбор в пользу органов правопорядка.

– Это решение родные и близкие поддержали единогласно, – рассказывает Азизжон. – Вдохновленный данным обстоятельством, начал активную подготовку к службе. В мою пользу сыграло знание английского языка, которое очень пригодилось, когда в 2021 году начал свою деятельность в подразделении туристической полиции. В моем становлении большую роль сыграл наставник – майор Халим Абдухалимов. Он профессионал своего дела, научил меня многому, за что весьма ему благодарен. Хочу отметить, что наше подразделение оснащено самой современной техникой и средствами связи. Это очень важно, поскольку поток туристов как из регионов Узбекистана, так и стран ближнего и дальнего зарубежья постоянно растет. Гости знакомятся с достопримечательностями Самарканда, а наша задача – обеспечивать их безопасность, учитывать все нюансы, сделать так, чтобы ничто не омрачило их пребывание в древнем городе.

Азизжону Эргашеву присущи такие качества, как целеустремленность, принципиальность, высокое чувство ответственности. Несмотря на то, что в туристической полиции он служит сравнительно недавно, уже на хорошем счету у руководства и коллег.

…Рабочий день лейтенанта А. Эргашева зачастую затягивается до поздней ночи. Дома его ждет супруга, Мухайё, вместе с малышкой Садией, которой недавно исполнилось два месяца. Пожелаем молодой семье удачи во всем. Пусть мечты Азизжона обязательно сбудутся!

**Георгий ПЕТРОСЯН,**
**корреспондент**
**«На посту».**

*В Караульных войсках МВД*



# НА УЧЕНИЯХ КАК В БОЮ



**Личный состав подразделений Караульных войск МВД Республики Узбекистан совершенствует боевое мастерство, знания, полученные в аудиториях, закрепляются во время учений.**





Недавно в войсковой части №7533, дислоцированной в городе Андижане, побывала рабочая группа, которую возглавил первый заместитель командующего Караульными войсками МВД полковник Убайдулла Джаббаров.

Члены рабочей группы изучили, как организована в подразделении боевая, строевая и физическая подготовка. С целью проверки была объявлена учебная тревога, в ходе которой военнослужащие продемонстрировали умение действовать оперативно и слаженно, принимать верные решения в сложных условиях. Бойцы отражали атаки условного противника, отрабатывали навыки оказания первой помощи раненым, выполняли тактико-тренировочные упражнения.

**А. ЮСУПОВ,**
**подполковник.**
*Андижанская область.*

*Salomatlik saboqlari*

# ISSIQ HAVODA SALQIN ICHIMLIKLARNI ICHISH QANCHALIK ZARARLI?

**Issiq havoda salqin ichimliklar ichish oshqozon va butun organizmga zarar yetkazishi mumkin. Bunda tayyor bo‘lmagan organizmning muzdek ichimlikni qabul qilishi juda qiyin bo‘ladi, ular ovqat hazm qilish traktiga ham xavf tug‘diradi. Bundan tashqari, salqin ichimlik ichganda tonzillit kabi surunkali kasalliklar kuchayishi mumkin.**



Ta’kidlanishicha, agar muzdek suv oshqozonga tushsa, u holda fermentlar va me’da shirasining ishlab chiqarilishi vaqtincha to‘sib qo‘yiladi. Natijada oqsillar so‘rilmaydi. Bu esa juda xavfli.

Bundan tashqari, sovuq suv ichganda yog‘lar hazm bo‘lmaydi, ichakning harakatlanish faolligi pasayadi, bu esa ich qotishiga olib keladi. Shuningdek, juda issiq suv ichish (65 darajadan yuqori) ham noto‘g‘ri — qizilo‘ngach saratoni xavfi ortadi.

Sharbatlardan esa butunlay voz kechish tavsiya etiladi. Ularni muntazam iste’mol qilish podagra yoki buyrakda tosh yig‘ilishiga, eng yomon holatda esa saratonga olib kelishi mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, kuniga ikki marta ko‘k choy (u gidratatsiyani tiklaydigan ajoyib antioksidant) va limonli suv ichish foydali.



Yozning issiq kunlarida salqin ichimliklarga bo‘lgan talab ortib, aholi gavjum joylarda, bozorlarda turli sharbatlar, mors, ayron kabi chanqoqbosdi ichimliklar savdosi avj oladi.

> KO‘CHMA SAVDO BILAN SHUG‘ULLANUVCHI SHAXSLAR TOMONIDAN SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARIGA RIOYA QILINMAY, QO‘LBOLA USULDA TAYYORLANIB, SIFAT NAZORATISIZ SOTILAYOTGAN ICHIMLIKLARNI ISTE’MOL QILISH INSON SALOMATLIGI UCHUN XAVF TUG‘DIRISHI TABIIY.

Biz odatda yo‘llarning chekkasida ko‘radigan oddiy, qo‘lbola bochkalarda sotiladigan ichimliklarda kimyoviy va bakteriologik moddalar bor-yo‘qligi tekshirilmagan. Demak, kvas, mors yoki sharbat bo‘lishidan qat’i nazar bunday ichimliklarni ichish xavfsiz emas.

O‘tkir ichak infeksiyasi, salmonellyoz, gastroentret, gastrit kabi yuqumli kasalliklar keltirib chiqaruvchi mahsulotlar qatoriga haftalab issiqda qolib, keyin o‘z egasini topayotgan qovun-tarvuz va meva-chevalar ham kiradi.

Darhaqiqat, har qanday mahsulotni iste’mol qilish yoki uni tayyorlashda me’yorga amal qilinmasa, bu shubhasiz, zaharga aylanishi mumkin. Shuning uchun ko‘cha-ko‘yda sotilayotgan salqin ichimliklarni iste’mol qilayotganda ehtiyot bo‘ling.

**Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

## КАК ДЕПРЕССИЯ СКАЗЫВАЕТСЯ НА ОРГАНИЗМЕ?

**При депрессии нарушается баланс трех нейромедиаторов: серотонина, норадреналина и дофамина. Они участвуют в регулировании настроения и поведения.**

### 5 СПОСОБОВ, КОТОРЫЕ ПОМОГУТ

Высыпайтесь. Недостаток сна и отдыха усугубляет депрессию.

Отдыхайте. Ритм жизни современного человека больше похож на гонку, мы много работаем и мало отдыхаем.

Смените обстановку.

Смените окружение.

Увеличьте физическую активность.



## ЗДОРОВЬЕ ПОСЛЕ 40 ЛЕТ: СОВЕТЫ СПЕЦИАЛИСТОВ



В первую очередь необходимо держать под контролем артериальное давление, уровень сахара в крови, а также следить за триглицеридами и мочевой кислотой. Целесообразно снизить количество потребления таких продуктов, как соль, сахар, отбеленная мука, молочная продукция, обработанная пища. Включите в рацион больше овощей, фруктов, бобовых, орехов, масла холодного отжима.

Спать следует не менее 8 часов в сутки. Ложиться в кровать не позднее 23 часов.

В течение дня устраивайте перерывы на отдых. Днем можно организовать послеобеденный сон или просто отдохнуть в горизонтальном положении.

Планируйте свой день, равномерно распределяя нагрузку.

Подберите для себя адекватную физическую нагрузку. Ежедневно выполняйте несложные физические упражнения.

**ОБЫКНОВЕННАЯ ГРЕЧКА?**

Гречка содержит уникальный белок, который участвует в формировании жировых клеток, – «белок долголетия». Этот белок обладает свойством влиять на процесс старения, поэтому данная крупа должна быть обязательно включена в рацион. Регулярное употребление гречки повысит устойчивость к старению всех органов и систем организма.

*Летние каникулы*

# В ГОСТЯХ У ДЕТЕЙ

**Лето – веселая пора для детворы. Оздоровительные лагеря распахнули двери для мальчишек и девчонок.**






Детский оздоровительный лагерь «Футболчи» расположен в живописном уголке Ургенча. Здесь созданы все условия для того, чтобы ребята могли содержательно провести каникулы. В лагере функционируют секции футбола, волейбола, настольного тенниса, шахмат, разнообразные кружки, библиотека. Проводятся спортивные состязания, конкурсы, вечера вопросов и ответов под девизом «Мы за здоровый образ жизни!».

Управлением охраны общественного порядка СОБ УВД Хорезмской области разработан план по работе с подростками в летний период. Согласно плану здесь проводятся встречи на темы «Соблюдаем Правила дорожного движения», «Правонарушениям – нет!», «Мы против наркотиков!» и др.

– Учитывая особый интерес ребят к миру животных, предусмотрены также мероприятия с участием кинологов и служебных собак, – говорит начальник отделения координации деятельности кинологической службы УООП СОБ УВД области Расулбек Полвонов. – В их организации активное участие принимают сержант Гайрат Ражабов, рядовые Журат Раматов, Отахон Ражабов и др. Сотрудники рассказывают о процессе дрессировки собак, как они помогают в раскрытии преступлений, отвечают на многочисленные вопросы о правильном уходе за питомцами. Затем четвероногие помощники демонстрируют умение четко выполнять команды. Такие встречи производят на ребят незабываемые впечатления. Возможно, кто-то из них в этот момент определится с будущей профессией.

**Худойберган ЖАББОРОВ, корреспондент «Postda».**
*Хорезмская область.*





# ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ
## (с 3 по 9 июля)

**Овен.** Неделю стоит провести максимально продуктивно. Приступайте к делам с утра, даже если нет желания что-то делать. Это тот случай, когда «аппетит приходит во время еды», к вечеру вы будете довольны результатами своей деятельности. В конце недели стоит провести «работу над ошибками».

**Телец.** Предвидятся неприятные ситуации в оставленном жилище типа протечки водопроводного крана и т.п. Этот период потребует также повышенной аккуратности в финансовых вопросах, так как не исключен обман. В выходные у вас есть шанс оказаться на выгодной распродаже.

**Близнецы.** На этой неделе ожидает неприятный «сюрприз». Может напомнить о себе человек, с которым связаны негативные воспоминания. Если вы не так давно одалживали у кого-то деньги, с вас могут потребовать незамедлительно их вернуть. Кто-то начнет романтические отношения, а кому-то посчастливится найти нового друга.

**Рак.** Получите признание своих профессиональных заслуг. Если оно будет выражено в денежном эквиваленте, можете смело тратить деньги на себя. Тем более, что наступающий период удачен для совершения покупок. Не следует безоговорочно доверять новым знакомым.

**Лев.** Можно рассчитывать, что быстро и без особых проблем решится вопрос, связанный с трудоустройством или с финансовой сферой. Есть шанс, что рядом появится привлекательный человек, буквально созданный для супружеской жизни.

**Дева.** Придется выслушивать упреки по самым разным поводам. Прежде чем негативно реагировать, стоит задуматься: возможно, что критика справедлива. Те, кто вступит в этот период в борьбу со своими недостатками, очень скоро добьются впечатляющих успехов.

**Весы.** Упадок сил, утрата бдительности будут преследовать вас на протяжении почти всего периода. Но как бы ни было трудно, бездействовать сейчас не следует. Тем более, что в эти дни совсем неплохо пойдут дела, связанные с улаживанием тех или иных конфликтов.

**Скорпион.** Появится шанс избавиться от конкурентов на работе. Но имейте в виду, что и они будут действовать против вас очень жестко. Если вам понадобится совет, обращайтесь только к специалистам, а не к «знающим людям».

**Стрелец.** Раскроется важная и, увы, не слишком приятная тайна. Придется поволноваться за близкого человека. Как бы то ни было, постарайтесь сохранять хладнокровие, потому что от ваших четко выверенных действий будет зависеть многое.

**Козерог.** Козерогам неделя обещает определенные успехи. Кто-то найдет новый источник доходов, кто-то научится понимать сложного родственника. Однако в середине периода внезапно появится недовольство собой. Скорее всего, это лишь сиюминутное настроение.

**Водолей.** Придется собрать волю в кулак. Домочадцы, родственники, друзья также могут подкинуть вам немало хлопот. Поскольку убежать от этого сейчас никак не удастся, придется смириться и тянуть воз. Но и о здоровье забывать не следует: оно у вас сейчас особенно уязвимо.

**Рыбы.** Ближайшие планы придется перенести на будущее, однако это вас не сильно расстроит, потому что позволит, наконец, расслабиться и отдохнуть. Среди возможных рисков – небольшие травмы.

Oramizdagi chempionlar

# SAMBOCHILARIMIZ TENGSIZ




**Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, sportni rivojlantirish borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasi o'laroq, sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, sovrinli o'rinlarni egallashmoqda.**

Yaqinda Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati tashkil etilganligining 100 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Dinamo sport o'yinlari» musobaqasida qo'lga kiritilgan natijalar ham buning isbotidir.

Unda jahonning ko'plab davlatlari qatori mamlakatimiz hamda O'zbekiston «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati terma jamoasi sambochilari ham faol ishtirok etishdi.

21 ta terma jamoa o'zaro bahslashgan musobaqa yakuniga ko'ra, yurtimiz vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medallarni jamg'arib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egallashdi. Ular sha'niga davlatimiz bayrog'i baland ko'tarilib, madhiyamiz yangradi.

# OLTIN MEDAL MUBORAK, SARVARBEK!

**Yurtimizda osoyishtalik posbonlarining sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan. Buning samarasi o'laroq, ular nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilishmoqda.**

Joriy yilning 16–18-iyun kunlari Isroilning Beer-Sheva shahrida bo'lib o'tgan sportning jiu-jitsu turi bo'yicha professionallar o'rtasidagi jahon kubogi bahslarida ishtirok etgan Toshkent viloyati IIBB To'rtinchi mintaqaviy hudud Patrul-post xizmati xodimi, safdor Sarvarbek Rahmonberdiyev 56 kilogramm vazn toifasida barcha raqiblarini mag'lub etib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Musobaqaning oltin medaliga sazovor bo'lgan sportchimizni Bosh boshqarma rahbariyati va hamkasblari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida tantanali ravishda kutib olishdi. Biz ham Sarvarbek Rahmonberdiyevni yuksak g'alaba bilan samimiy qutlab, kelgusida ham bu kabi yutuqlar yor bo'lishini tilab qolamiz!

**O'z muxbirimiz.**






Postda
На посту

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sherzod ABDUSAMADOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010. Bank kodi 00014. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi. Shaxsiy h/v 470010860262877031101179001 STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.
Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Buyurtma №V-5522.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50942 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.